

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 167 (1228), 2024-yil 21-avgust, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



TADBIRKORLAR BILAN OCHIQ MULOQOT: MUAMMOLAR MUHOKAMA QILINIB, TAKLIFLAR QO‘LLAB-QUVVATLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-20-avgust kunlari Qoraqalpog‘istonda bo‘ldi.



Nukus shahrida 20-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan navbatdagi ochiq muloqoti bo‘lib o‘tdi. So‘nggi yillarda an‘anaga aylangan bu muloqot sohadagi tizimli muammolari hal etish, takliflarni muhokama qilish va yangi qulayliklar yaratishi bilan ishbilarnonlar kutadigan tadbirga aylandi.

Bu yil ochiq muloqot muntazam davom etdi deyish mumkin. Prezidentdan boshlab Bosh vazir, Bosh vazir o‘rinbosarlari, vazirlar, hokimlar, Savdo-sanoat palatasi rahbari, Biznes ombudsman tadbirkor bilan doimiy muloqotda bo‘ldi.

Tasdiqlangan rejadani tashqari, tadbirkorlar ko‘targan 700 dan ortiq masala, tashabbus va

yangi loyihalar qo‘llab-quvvatlandi, 8 trillion so‘m qo‘shimcha mablag‘ ajratildi. Sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar rivoji, tadbirkorlik infratuzilmasi uchun yana 18 trillion so‘m yo‘naltirildi. Eng muhimi, mahalladagi kichik loyihadan tortib, megaloyihagacha qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizim yo‘lga qo‘yildi.



Ilgari kredit, bozor topish, infratuzilma bilan bog‘liq muammolar, tinimsiz “tekshir-tekshirlar” sababli 60 foiz yangi tadbirkorlar faoliyati birinchi yilning o‘zidayoq to‘xtab qolar edi. Bugunga kelib uch yildan ortiq ishlayotgan korxonalar ulushi 76 foizni tashkil etib, ilk bor 300 mingtaga yetgan. Yana 100 mingdan ziyod

shunday yakka tartibdagi tadbirkorlar bor. Bu yilning o‘zida tadbirkorlarning tovar aylanmasi o‘tgan yilga nisbatan 25 foizga ko‘payib, 986 trillion so‘mga yetdi. Yillik aylanmasi 10 milliard so‘mdan 100 milliard so‘mgacha bo‘lgan o‘rtacha korxonalar 2 karra ko‘paydi. Aylanmasi 100 milliard so‘mdan ortiq yirik korxonalar esa 2 ming 200 tadan

oshib. Bu ham o‘tgan yilga nisbatan 2 baravar ko‘p.

Soliq, bank, moliya, butun iqtisodiyot kompleksi “mahallabay” va “mijozbay” ishlayotgani natijasida oldin zarar bilan ishlagan 16 ming korxonalar yarim yilda 6,5 trillion so‘m foydaga chiqdi.

Davomi 3-beta

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING MAMLAKATIMIZ TADBIRKORLARI BILAN OCHIQ MULOQOT SHAKLIDA O‘TKAZILGAN UCHRASHUVDAGI NUTQI

Qadri vatandoshlar, hurmatli tadbirkorlar, anjuman ishtirokchilari!

O‘tgan yilgi uchrashuvimizda navbatdagi ochiq muloqotni Nukus shahrida o‘tkazish haqida kelishib olgan edik. Bugun Vatanimizning shimoliy darvozasi bo‘lgan Qoraqalpog‘istonda sizlar bilan diyor ko‘rishib turganimdan g‘oyat xursandman.

Kecha bu yerda yangi-yangi korxonalar, ta‘lim va tibbiyot maskanlari, mahalladagi o‘zgarishlar bilan tanishdim. Butun mamlakatimizda bo‘layotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlarni Qoraqalpog‘iston misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Bugun qanday tahlikali va murakkab zamonada yashayotganimizni barchamiz ko‘rib turibmiz. Shunga qaramasdan, iqtisodiyotimiz barqaror o‘tib borayapti. Buni dunyodagi nufuzli xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlar yetakchilari e‘tirof etmoqda. Yaqinda Xalqaro valyuta jamg‘armasi mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti ilk bor 100 milliard dollardan oshganini tasdiqladi.

Ishlohtarimimizning birinchi kunlaridanoq siz hurmatli tadbirkorlar bilan yelkama-yelka turib, doim muloqotda bo‘lib birgalikda ishlaganimizda, bunday natija bo‘larmidi? Yo‘q, albatta.

Shunday yuksak marraga erishishda ilg‘or texnologiyalar asosida zamonaviy korxonalar ochayotgan, yuz minglab yangi ish o‘rinlarini yaratayotgan va dunyo bozorlariga jadal kirib borayotgan siz azmu shijoatli tadbirkorlarning hissangiz beqiyos ekanini xalqimiz yaxshi biladi.

Rivojlangan davlatlarda o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan, katta-katta natijalari bilan yurtimiz nomini chet elliklarga tanitayotgan ko‘plab vatandoshlarimiz bor. Bugungi uchrashuvimizda ham 40 nafardan ziyod ana shunday vatanparvar, ishbilarnon biznes vakillarini ko‘rib xursand bo‘ldim.

Kuni kecha ilg‘or biznes vakillaridan 37 nafarini orden va medallar bilan, 104 nafarini “Faol tadbirkor” ko‘krak nishoni bilan taqdirladik.

Fursatdan foydalanib, Vatanimizning mana shunday yuksak mukofotlariga sazovor bo‘lgan barcha tadbirkorlarimizni chin dildan tabriklayman!

Barcha-barchangizga fidokorona mehnatingiz uchun o‘z nomidan, butun xalqimiz nomidan samimiy minnatdorlik bildiraman!

Sizlar yangilik yaratishdan, tashabbus ko‘rsatishdan charchamanglar. Sizlarni

qo‘llab-quvvatlashga, yanada qulay sharoitlar yaratib berishga men doim tayyorman!

Hurmatli tadbirkorlar!

Bu safargi ochiq muloqotimiz yil mobaynida davom etdi, desak to‘g‘ri bo‘ladi. Prezidentdan boshlab Bosh vazir, Bosh vazir o‘rinbosarlari, vazirlar, hokimlar, Savdo-sanoat palatasi, Biznes ombudsman — barcha-barcha rahbarlar yil bo‘yi tadbirkor bilan doimiy muloqotda bo‘ldi.

Tasdiqlangan rejadani tashqari, tadbirkorlar ko‘targan 700 dan ortiq masala, tashabbus va yangi loyihalar qo‘llab-quvvatlandi, 8 trillion so‘m qo‘shimcha mablag‘ ajratildi.

Sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar rivoji, tadbirkorlik infratuzilmasi uchun yana 18 trillion so‘m yo‘naltirildi. Eng muhimi — mahalladagi mikro loyihadan tortib, megaloyihagacha qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi tizim yo‘lga qo‘yildi.

Berilayotgan imkoniyatlar hisobiga nima o‘zgardi? Mana bu raqamlarga e‘tibor bering.

Ilgari kredit, bozor topish, infratuzilma bilan bog‘liq muammolar, tinimsiz “tekshir-tekshirlar” sababli 60 foiz yangi tadbirkorlar faoliyati birinchi yilning o‘zidayoq to‘xtab qolar edi.

Hozir-chi? Bugunga kelib, uch yildan ortiq ishlayotgan korxonalar ulushi 76 foizni tashkil etib, ilk bor 300 mingtaga yetdi. Yana 100 mingdan ziyod shunday yakka tartibdagi tadbirkorlar bor.

Bu yilning o‘zida tadbirkorlarning tovar aylanmasi o‘tgan yilga nisbatan 25 foizga ko‘payib, 986 trillion so‘mga yetdi. Yillik aylanmasi 10 milliard so‘mdan 100 milliard so‘mgacha bo‘lgan o‘rtacha korxonalar 2 karra ko‘paydi. Aylanmasi 100 milliard so‘mdan ortiq yirik korxonalar esa 2 ming 200 tadan oshdi. Bu ham — o‘tgan yilga nisbatan 2 baravar ko‘p bo‘ldi.

Soliq, bank, moliya, butun iqtisodiyot kompleksini “mahallabay” va “mijozbay” ishlagani natijasida oldin zarar bilan ishlagan 16 ming korxonalar yarim yilda 6,5 trillion so‘m foydaga chiqdi.

Bugungi kunda 100 tadan ortiq ishchi bor korxonalar 3 mingga yaqinlashib, ulardagi ish o‘mi bir yilda 440 mingga ko‘paydi. Ushbu korxonalaridagi ishchilar soni 1,7 millionga yetdi.

Xususiy sektorda 5 million so‘mdan ko‘p maosh oladigan ishchilar 1 milliondan oshdi. Shundan 370 mingi 10 million so‘mdan ziyod oylik oladi.

Bular nimadan dalolat beradi? Tadbirkorlarimiz “soyada” ishlashdan ko‘ra,

qonuniy faoliyat, sog‘lom raqobatni manfaatli, deb bilayapti.

Boshqa bir misol. Tadbirkorlik reytingida “A” va “B” — yaxshi toifaga kiruvchi korxonalar 91 mingga ko‘paydi, yana 170 ming korxonalar “D” — eng yomon toifadan chiqarildi.

Buning hisobiga, soliq tekshiruvlari o‘tgan yilga nisbatan 2 karra — 85 mingtadan 48 mingtaga, jumladan, kameral tekshiruvlar 3 karra — 38 mingtadan 12 mingtaga qisqardi. Shu davrda yirik soliq to‘lovchilar tushumlari 10 foizga, viloyat darajasidagi korxonalarda 25 foizga, tuman tadbirkorlari to‘layotgan soliqlar 40 foizga o‘tdi.

Nima uchun bu raqamlarni aytayapman?

Chunki, “tekshirsa — qo‘rqadi, qo‘rqsa — soliq to‘laydi”, degan qarash bilan ish yurmasligini hamma, ayniqsa, soliqchilar tushunib yetdi. Sodda qilib aytganda, mansabdorlarni tadbirkor bilan “siz” deb gaplashishga o‘rgatib, biznes muhitini yaxshilash bo‘yicha tub burilish yasadik.

Olti oyda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya hajmi o‘tgan yilga nisbatan 2 karra o‘tib, 14 milliard dollarga yetdi. Bu — investorlarning O‘zbekistonda biznes qilishga ishonchi ortib borayotganidan dalolat beradi.

Aziz yurtdoshlar!

Hozir aytilgan raqamlarning birortasi 33 yillik tariximizda bo‘lmagan. Bularning barchasi sakkiz yil oldin sizlar bilan o‘zaro ishonch asosida boshlagan islohtarimimizning ilk nishonasi!

Hali imkoniyatlarimiz bundan karra-karra ko‘p. Eng muhimi, ularni ishga solishga qodir bo‘lgan sizlardek vatanparvar va jonkuyar tadbirkorlarimiz bor.

Aholimiz soni 38 millionga yaqinlashib borayapti, ularning daromadli ham kundan-kunga ko‘paymoqda. Qo‘shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalarimiz misli ko‘rilgan darajaga chiqdi. Mamlakatimiz mahalliy korxonalar uchun ham, chet el kompaniyalari uchun ham katta bozorga, mintaqadagi sanoat xabiga aylanib ulgirdi.

Hozirgi murakkab sharoitda barcha davlatlar o‘z yurtidagi ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishni ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rayapti. Biz ham raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish bo‘yicha tadbirkorlarimizni yanada keng qo‘llab-quvvatlaymiz.

Bugun ham tadbirkorlik uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish bo‘yicha muhim yangi tashabbuslar bilan o‘rtolashaman.

Davomi 2-beta

STRATEGIK SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISH REJALARI KO‘RIB CHIQLDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 20-avgust kuni “Air Products” kompaniyasi prezidenti va bosh ijrochi direktori Seyfi Gasemini qabul qildi.

O‘zbekistonda yuqori texnologik sanoat korxonalarini tashkil etishga faol sarmoya kiritayotgan yetakchi xalqaro kompaniyalardan biri bo‘lgan o‘zaro manfaatli strategik hamkorlikni yanada kengaytirishning amaliy jihatlari ko‘rib chiqildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda “Air Products” bilan qo‘shma loyihalar portfeli 2,5 milliard dollardan oshdi.

Uglevodorodlarni chuqur qayta ishlash va kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasida innovatsion loyihalarni amalga oshirish, qishloq xo‘jaligida

ilg‘or texnologik yechimlarni joriy etish, shuningdek, energetika va kimyo tarmoqlari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash yuzasidan kelishuvlarga erishildi.

O‘ZA

TASHABBUS, FIKR VA G‘OYA

QONUNCHILIK TAKOMILIGA XIZMAT QILMOQDA

Prezidentimizning Qoraqalpog‘istonda galdagi tashrif nafaqat hudud iqtisodiyotida qator muhim loyihalar ishga tushirilishiga yo‘l ochdi, balki tadbirkorlik subyektlari uchun ham katta voqea bo‘ldi. Chunki aynan shu tashrif doirasida davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti Nukusda tashkil etildi.

Bir necha yillardan buyon an‘anaviy tus olgan muloqot soha vakillari kutadigan muhim anjumangacha aylandi, desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki ochiq muloqotda tadbirkorlar bevosita davlat rahbariga o‘z taklif va tashabbuslarini bildirish barobarida yechimini kutayotgan muammo yoki kamchiliklarni o‘rtaga tashlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Kelgusi faoliyat uchun zarur vazifalar belgilab olinadi.

Davomi 4-beta



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEVNING MAMLAKATIMIZ TADBIRKORLARI BILAN OCHIQ MULOQOT SHAKLIDA O'TKAZILGAN UCHRASHUVDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-betda

Birinchi yo'nalish — kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirish.

O'tgan yili kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun yangi tizim joriy qildik. Bu borada Biznesni rivojlantirish banki va Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi tashkil etilib, yil boshidan 35 mingdan ortiq tadbirkorlarga o'rtaacha 100 million so'mdan jami 3,5 trillion so'm mikrokreditlar ajratildi.

Bundan tashqari, "Biznesga birinchi qadam" dasturi bo'yicha tadbirkorlikni endi boshlayotgan 115 ming aholiga 1 trillion so'mlik mikroqarzar berildi.

Ushbu tajriba o'z samarasini ko'rsatdi va buni yanada kengaytiramiz.

Birinchi, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashda barcha banklar va mikromoliya tashkilotlari ishtirok etishi mumkin bo'ladi.

Masalan, 100 million so'mgacha mikrokredit bor-yo'g'i 9 foiz tadbirkorlarning ehtiyoji uchun yetarli ekanligi ma'lum bo'ldi. Shu bois, mikrokreditlar miqdori 3 karra oshirilib, 300 million so'mga yetkazildi. Bunda kreditning 100 million so'mgacha bo'lgan qismiga garov talab qilinmaydi. Bu maqsadga bir yilda 10 trillion so'm beriladi.

Endi Tadbirkorlik kompaniyasining filiali har bir viloyatda tashkil qilinadi. Kompaniya va uning filiallari hududlarda salohiyati bor tadbirkorlarni aniqlaydi. Kompaniya kafilliklari yaxshi kredit tarixi va yuqori barqarorlik reytingiga ega tadbirkorlarga beriladi.

Endi tadbirkorlarning bankdagi 200 million so'mgacha bo'lgan mablag'lari kafolatlanadi. Bu — davlat tadbirkorlar hisobraqamidagi 7 trillion so'm mablag' bilan bog'liq xavf-xatarlarni o'z zimmasiga oladi, degani.

Ikkinchi, xabaringiz bor, mikromoliya bozori uchun yo'l ochib berildi. Masalan, o'tgan yetti oyda 91 ta mikromoliya tashkiloti 6,6 trillion so'mlik moliyaviy xizmatlar ko'rsatdi va yil yakunigacha bu raqam 22 trillion so'mga yetkazildi.

Biz mikromoliya xizmatlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni davom ettiramiz. Ularga joriy yildagi 1,6 trillion so'mga qo'shimcha 1 trillion so'm resurs ajratildi.

Bundan tashqari, Mikrokreditbank ham o'zining mikromoliya tashkilotlari orqali yil yakunigacha yana 1 trillion so'm jalb qiladi. Shu bilan birga, ustav kapitali kamida 50 milliard so'm bo'lgan mikromoliya banklarini tashkil etishga ruxsat berildi. Ushbu banklar kredit portfelining kamida 70 foiz kichik va o'rta biznesni moliyalashtirishga yo'naltiriladi. Mikromoliya banklari tadbirkorga 5 milliard so'mgacha kredit beradi.

Ular aholidan 200 million so'mgacha omonat jalb qilishi mumkin bo'ladi. Shuningdek, mikromoliya tashkilotlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratiladi. Bu tashkilotlar tomonidan tadbirkorlarga xorijiy valyutada xizmat ko'rsatish va litsenziya asosida to'lov tashkiloti sifatida faoliyat yuritishga ruxsat beriladi.

Uchinchi, hozir ko'p eksportchilar yirik xorijiy savdo tarmoqlariga 3-4 oy kechiktirib to'lash sharti bilan mahsulot yetkazib berayapti. Uzlaksiz ishlab chiqarish uchun korxonalarida aylanma mablag'ga ehtiyoj oshayapti. Lekin hamma tadbirkorda ham yangi kredit olish, uning uchun garov topish imkoniyati yo'q.

Bunda tadbirkordan garov talab qilmaydigan eng qulay vosita bu — faktoring. Eksportchilar hozir valyutada faktoring olish uchun chet el banklari xizmatidan foydalanib kelayotganidan xabarim bor.

Xalqaro moliya korporatsiyasi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda 10 milliard dollarlik faktoring xizmatiga talab bor. Hozir bu xizmatni faqat banklar, mikromoliya tashkilotlari ko'rsatayapti. Shuning uchun o'tgan yili atigi 578 milliard so'mlik faktoring xizmati ko'rsatilgan.

O'tgan hafta faktoring bozorini rivojlantirish bo'yicha farmon imzoladim. Bundan buyon bank bo'lmagan yangi institut — faktoring tashkiloti uchun yo'l ochiladi.

Ular xorijiy valyutada ham xizmat ko'rsatishi mumkin bo'ladi. Bu jarayonda qatnashadigan bank, mikromoliya, faktoring tashkiloti va tadbirkorlar foydalanadigan alohida elektron platforma ishga tushiriladi. Ya'ni, tadbirkor undan o'ziga qulay moliyaviy mahsulotni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Umuman, faktoringni ommalashtirish hisobidan tadbirkorlarga aylanma uchun 20 trillion so'm, eksportchi korxonalariga 1 milliard dollar qo'shimcha moliyaviy resurslar paydo bo'ladi.

To'rtinchidan, o'tkazilgan so'rovda tadbirkorlarning 38 foizi islom moliyasi asosida

resurs olish istagini bildirgan. O'tgan oyda mikromoliya tashkilotlariga islomiy shartlar asosida xizmat ko'rsatishga ruxsat berildi.

Hozir yangi qonun loyihasi tayyor bo'ldi. Parlamentimiz a'zolaridan loyihani tez muddatda ko'rib chiqishlarini so'raymiz. Undan keyin, islom moliyasi bilan banklar ham ishlashi mumkin bo'ladi.

Bunday yangi moliyaviy xizmatlar taqdim etilishi ko'p investorlar kirib kelishi va 5 milliard dollarlik qo'shimcha resurs paydo bo'lishiga turtki beradi.

Beshinchidan, 9 ta davlat banki bergan kreditning 92 trillion so'mi yoki 30 foizi 10 ta yirik davlat korxonasiga to'g'ri keladi.

Biz yirik korxonalarni transformatsiya qilayapmiz. Ularni moliya bozorlariga mustaqil chiqib, o'zi mablag' jalb qilishga o'rgatayapmiz. Masalan, "O'zbekneftgaz" aksiyadorlik jamiyati, "O'zavtosanoat" aksiyadorlik jamiyati 1 milliard dollardan ortiq yevrobondlarni chiqardi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati ham chetdan o'zi ana shunday mablag' olib kelishga tayyorgarlik ko'rayapti.

Endi davlat jalb qilgan mablag'larni yirik korxonalariga berish amaliyotidan bosqichma-bosqich voz kechamiz. Bunday mablag'larni berish ikki yil ichida kamida 40 foizga qisqaradi. Banklar buning hisobidan kamida 30 trillion so'mni xususiy biznesga yo'naltiradi.

Ikkinchi yo'nalish — biznesni infratuzilma, yer va energiya bilan ta'minlash.

Ochiq muloqot doirasida kelib tushgan 11 mingta murojaatdan 2 mingtasi yer va infratuzilma bilan bog'liq. Joylarda o'tkazilgan so'rovda ham 55 foiz tadbirkor elektr energiyasi, gaz ta'minotida, tarmoqqa ulanishda muammo borligini aytgan.

Bilasizlarmi, mamlakatimizdagi 44 million 800 ming gektar yerning bozor qiymati hisoblangan, aholi va tadbirkorlarda qanchadan-qancha "iqtisodiy aktiv" paydo bo'ladi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yer va mulkka yondashuvlarimiz butunlay o'zgaradi, xususiy mulk daxsizligini ta'minlash bo'yicha katta amaliy ishlar qilindi. Lekin yerdan investitsiya sifatida foydalanish tizimi hali orqada. Xususan, Toshkent shahri tumanlari va Buxoro viloyatida bu masala tadbirkorlar, tuman hokimlari bilan ko'p muhokama qilindi. Hozir bu masalaning yechimlarini aytib o'tmoqchiman.

Birinchi, yer bozori shakllanishi ta'sirida yangi investitsiya loyihalari yer sotib olish xarajatlari keskin oshayapti. Infratuzilma yo'q joylarda ham 1 gektar yerning boshlang'ich narxi 500-600 million so'm, sanoat uchun qulay hududlarda 4-5 milliard so'mga chiqib ketdi. Tadbirkor yerga barcha katta xarajat qilganidan keyin qurilish, texnika va uskunaga mablag'i yetmay qolayapti.

Endi tadbirkor auktsiondan yer sotib olganda, unga qo'shilgan qiymat solig'i hisoblash bekor qilinadi.

Ayrim hududlarda auktsionning olingan yer uchun to'lovni bo'lib-bo'lib to'lash (2 yildan 7 yilgacha) tizimini joriy qilgan edik. Endilikda Toshkent shahri va viloyat markazlarida sotilgan yer bo'yicha xarid summasini uch yilgacha, qolgan hududlarda besh yilgacha, 4- va 5-toifa tumanlar uchun esa o'n yilgacha bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat beriladi.

Kelgusida tadbirkorlar darhol to'lov qilaman desa, buning uchun 20 foizgacha chegirma beriladi. Bunday tartib bino va inshootlarni xususiy lashtirish jarayonida qo'llanilmoqda.

Shuningdek, yirik loyihalarni amalga oshirish jarayonida yer qiymatini tadbirkor ustav fondiga davlat ulushi sifatida kiritish mumkin bo'ladi. Tadbirkor istagan paytda bu ulushni o'zi sotib olishi mumkin. Bu orqali shu yilning o'zida tadbirkorlar ixtiyorida 3 trillion so'm qoladi.

Ikkinchi, qancha-qancha tadbirkorlar yeri yo'qligi uchun yangi loyihalarni amalga oshira olmayapti. Aksincha, "auksiondan sotib oldim, endi mening mulkim" deb, yerni qarovsiz tashlab qo'ygan "uddaburonlar" ham ko'p.

Yer — eng cheklangan resursimiz va yo doim iqtisodiy naf keltirishi kerak. Shu bois, yangi yerlarni ajratishda binolarni loyihalashdan obyektini topshirishgacha bo'lgan muddatlar majburiy ko'rsatiladi.

Bunda qurilish davrida yer solig'i bo'yicha 50 foiz imtiyoz beriladi (viloyat markazlaridan tashqari), qurilishga ruxsat olish muddati davlat organi aybi bilan o'tkazib yuborilsa, qurilish vaqti shu muddatga uzaytirib beriladi. Qurilish ishlari muddatida bo'lmasa, yer sud orqali qaytarib olinadi yoki boshqa tadbirkorga sotiladi.

Uchinchi, qishloq va noqishloq joylarda yer fondi doirasida bir faoliyatdan boshqasiga o'zgartirish tartibi aniq belgilanmagan. Masalan, bog' o'mida issiqxonaga tashkil qilaman degan tadbirkor ishini nimadan boshlashni, kimga murojaat qilishni bilmaydi. Yoki tadbirkor o'zining bog'ida tomchilatib sug'orish uchun hovuz, kichik sig'imli saralash va saqlash omborini qura olmaydi.

Shu bois, har bir yer uchastkasi uchun asosiy faoliyat turini qaysilariga almashtirish mumkinligi, qanday yordamchi inshootlarni joylashtira olishi aniq belgilab beriladi.

Buning uchun 1-yanvardan yer uchastkalari va kapital qurilish obyektlarining yagona klassifikatori joriy etiladi.

Mana shu yangilik hisobidan tadbirkorlar bir yilda o'z yeriga 800 milliard so'mlik investitsiya kiritadi.

Bulardan tashqari, chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik, pillachilik sohalarini, meva-sabzavotni qayta ishlovchilarga ular joylashgan bino-inshootlar ostidagi yerlar uchun sanoat toifasi stavkasida yer solig'i hisoblanayapti. Qishloq xo'jaligi yerlari uchun gektariga o'rtaacha 500 ming so'm, sanoat yerlari uchun hududiga qarab 27 million so'mdan 44 million so'mgacha soliq hisoblanmoqda. Klassifikatori joriy qilish orqali ular ham qishloq xo'jaligi yerlari kabi soliq to'lashga o'tadi.

Bu orqali nafaqat murojaat qilgan 795 ta tadbirkorning, balki barcha 103 ming qishloq xo'jaligi korxonalarining masalasi hal bo'ladi.

To'rtinchidan, barcha sanoat korxonalari elektr va gaz bo'yicha o'rnatilgan limit oshib ketsa, to'lov 2 karra ko'p undirilayotganidan norozi bo'layapti.

Sanoatimizning o'sishiga ta'sir qiladigan bunday cheklolvar qisqartiriladi. Endi elektr va gaz iste'moli limitdan 20 foizgacha oshib ketsa ham, bazaviy tarif saqlanib qoladi. Agar iste'mol 20 foizdan o'tib ketsa, oshgan qismiga to'lov 20 foiz qimmatlashadi.

Sanoatimizning o'sishiga ta'sir qiladigan bunday cheklolvar qisqartiriladi. Endi elektr va gaz iste'moli limitdan 20 foizgacha oshib ketsa ham, bazaviy tarif saqlanib qoladi. Agar iste'mol 20 foizdan o'tib ketsa, oshgan qismiga to'lov 20 foiz qimmatlashadi.

Tadbirkorlik reytingida "yuqori", "o'rta" toifadagi korxonalariga elektr uchun oldindan to'lovni bir oyda ikkiga bo'lib to'lashga ruxsat beriladi.

Budjetdan, kredit to'lovidan va boshqa xizmatlar bo'yicha qarzi bor tadbirkorlarning hisobraqamiga "inkasso" qo'yilgani uchun ular elektr, gaz va suv uchun to'lov qila olmayapti. Vaholanki, ishlab chiqarish to'xtatmasa, qarzdorlik tezroq uziladi.

Endi "inkasso" qo'yilgan taqdirda ham kommunal xizmatlar uchun to'lovlar to'xtatilmaydi.

Uchinchi yo'nalish — ichki bozorda teng raqobat muhitini yaratish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish.

Joriy yilning yetti oyida eksportimiz 13 foizga o'sib, 10 milliard dollardan oshdi, avval eksport qilmagan 1 ming 610 ta korxonaga tashqi bozorlarga chiqdi. Bunday korxonalar soni 6 mingdan oshdi.

Biz mahalliy korxonalarimiz tashqi bozorga chiqishini qo'llab-quvvatlashni izchil davom ettiramiz.

Birinchi, Jahon savdo tashkilotiga 2026-yilda a'zo bo'lish uchun katta qadamlarni qo'yyapmiz. Ushbu tashkilotga kirish — chuqur o'yilangan va uzoqni ko'zlagan tanlov, qolaversa, islohotlarimizning ajralmas bir qismi.

Lekin ayrimlar bunga shubha bilan qarayapti, boshqalar "korxonalar sinadi, import bosib ketadi" degan xavotir bilan yuribdi.

Bir narsani tushunish zarur, bu borada import bojlari ishlaydi. Shuning uchun tashkilot a'zolari bilan muzokaralar o'tkazayapmiz. Hozirgacha Yaponiya, Koreya Respublikasi, Turkiya, Braziliya kabi 17 ta a'zo davlatlar bilan kelishuvga erishilgan.

Erangi kunimiz — bu teng raqobat muhiti va eksportga qaratilgan sanoat va savdo siyosati. Iqtisodiyotimizga oldinlari proteksiya qaysidir ma'noda kerak edi. Yana shu yo'lda davom etsak, imkoniyatlarimiz cheklanib qoladi. Chunki xalqaro ishlab chiqarish zanjirlariga qo'shilmasak, iqtisodiy o'sish biz kutgandek bo'lmaydi.

Birgina misol, yon qo'shnilarimizning yillik importi 90 milliard dollar. Ulardagi ulushimiz esa atigi 4 foiz yoki 3,5 milliard dollarni tashkil qiladi.

Yana bir misol, MDH doirasida erkin savdo rejimini o'rnatganmiz, Hamdo'stlikka kirmagan davlatlar esa 10 foizdan 20 foizgacha bo'xona boji to'laydi. Lekin MDHdagi 500 milliard dollarlik importda bizning hissamiz 2 foizga ham bormaydi.

Demak, raqobat borasida biz hali ancha ishlashimiz zarur.

Bu borada katta islohot boshlab, ikki oy oldin alohida farmoni imzoladim.

Metallurgiya, kimyo, energetika va telekommunikatsiya tarmog'ida ekskluziv huquqlar bekor qilindi. Misol uchun, endi barcha teng sharoitda qora va rangli metall lomini sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Korporativ xaridlarda ishlab chiqarish uchun olinadigan mahsulotlarga ham narx ustuvorligi bekor qilinadi, bunda albatta mahsulot tannarxi pasayadi.

Bundan buyon hech kimda alohida huquq bo'lmaydi, xoh davlatning strategik korxonasi bo'lsin, xoh xususiy korxonaga yoki xorijiy investor bo'lsin, iqtisodiyotda barcha teng sharoitda ishlaydi.

Bundan tashqari, tashkilotga a'zolik xalqaro tranzit yuk tashishda ortiqcha to'lov yoki cheklolvarlardan xalos qiladi. Albatta, bu — raqobatdosh bo'lishimizga yana bir turtki beradi.

Umuman, mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, tashqi bozorlarda munosib o'rinish topish uchun xalqaro standartlarga o'tish kerak. O'zimizning, pestitsidlar nazoratini yo'lga qo'yimas ekanmiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini 2030-yilgacha 10 milliard dollarga yetkazish bo'yicha belgilagan marramizga erisha olmaymiz.

Yetishtirayotgan mahsulotlarimiz, bu yilgi piyoz va tarvuzga o'sxshab, bozorini topolmasdan nobud bo'laveradi.

Shu bois, bu yil oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo'yicha qonunni qabul qilamiz. Bu orqali karantin, veterinariya, sanitariya nazorati va standart tashkilotlarining takrorlovchi vakolatlari qisqaradi, tadbirkorlarni qayta-qayta tekshirishga chek qo'yiladi.

Tarif va notarif choralarini jahon savdosi talablari asosida tartibga solish bo'yicha Bosh vazir o'rinbosari J.Xodjayev boshchiligidagi idoralararo komissiyaga vaqtinchalik vakolat beriladi. Bunda tadbirkorlar nomidan Savdo-sanoat palatasi aniq masala qo'yadigan tizim yaratiladi.

Ikkinchi, o'tgan yilgi uchrashuvimizdan keyin 309 ta korxonaga 280 million dollar eksportoldi kreditlari ajratildi. Ushbu korxonalar hozirgacha 625 million dollarlik eksport qildi. Bu raqamni yil yakunigacha yana ikki karra oshirish bo'yicha hisob-kitob qilingan.

Ochiq muloqotga tayyorgarlik doirasida yana 122 ta eksportchini 145 million dollarlik aylanma mablag'ga ehtiyoj borligi aniqlandi. Shu bois, tarmoqlarni rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'dan 200 million dollari eksportoldi moliyalash uchun yo'naltiriladi. Shundan 50 million dollari bank kreditlari uchun kafillikka beriladi.

Bu mablag'lar hisobidan bir yil ichida qo'shimcha 1 milliard dollarlik eksport amalga oshiriladi.

Uchinchi, hozirgi geosiyosiy jarayonda Yevropaga an'anaviy transport marshrutlari bo'yicha yuk tashish cheklandi. Tranzit davlatlar o'z tashuvchisini qo'llab-quvvatlash maqsadida O'zbekistonga berilayotgan ruxsatnomalar sonini 3 barobargacha kamaytirdi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, transport korxonalarida 28 ta davlat bo'yicha 20 mingdan ortiq ruxsatnomalar ishlatilmasdan turibdi. Transport vaziri I.Mahkamovga bir oy muddatda ruxsatnomalardan foydalanish bo'yicha ochiq-oshkora tizimini yaratish topshirildi.

Bunda "E-logistika" platformasi ishga tushirilib, eksportchilar uchun qaysi korxonada qancha ruxsatnoma borligini ko'rish, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish imkoni yaratiladi.

To'rtinchidan, import o'rmini bosadigan va eksportbop mahsulotlarni ko'paytirish uchun zamonaviy texnologiyalar zarur.

Bunday asbob-uskunalariga buyurtma berib, olib kelishga ko'p vaqt ketishi tabiiy. Lekin, amaldagi tartib bo'yicha shartnoma muddatidan qat'i nazar sotib olingan uskuna 180 kunda yetib kelmasa, muddati o'tgan debitor qarzdorlik yuzaga keladi.

To'g'ri, bunday holatlarda jarima qo'llash amaliyotini bekor qilganmiz. Lekin tadbirkorlar uskuna kelmaguncha boshqa import shartnomalariga to'lovni amalga oshira olmaydi, oldindan to'lovsiz eksport qilishi mumkin emas, davlat tomonidan belgilangan imtiyoz va subsidiyalardan foydalanishi cheklangan. Hozirda 2 mingdan ziyod korxonada shunday muammo bor.

J.Xodjayev, J.Qo'chqorov, M.Nurmuratov shuni e'tiborga olsinki, endi chetdan uskuna va butlovchi qism olib kelish jarayonida shartnoma muddati buzilmasa muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelmaydi.

Ko'p tadbirkorlar eksport bo'yicha qo'shimcha qiymat solig'ini qaytarishda ortiqcha to'siq borligini aytayapti. Soliq va bo'xona xizmatlarining axborot tizimlari bir-biriga ulangan bo'lsa-da, eksportni tasdiqlaydigan hujjat talab etilayapti.

Bundan buyon bo'xona organining eksportni tasdiqlovchi elektron ma'lumoti qo'shimcha qiymat solig'ini qaytarish uchun asos bo'ladi, boshqa ortiqcha hujjatlar talab etilmaydi.

J.Qo'chqorov, Sh.Qudbiyev, A.Mavlonov bir oy muddatda ushbu tizim to'liq ishga tushirilishi uchun shaxsan mas'ul bo'ladi.

Bugungi kunda oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash, saralash, qayta ishlash uskunalari va butlovchi qismlari olib kelinganda sertifikat olish uchun uch yo'q vaqt ketayapti. Sababi, hududlarda sinovlarni to'liq qamrab oladigan laboratoriyalar yo'q. Hamma poytaxtga kelishga majbur.

Namanganlik ishlab chiqaruvchilar bu borada to'g'ri masalani ko'tarayapti.

Bosh vazir A.Aripov bu masalani shaxsan o'zi nazoratga olib, yil yakuniga qadar Namangan, Samarqand va Xorazm viloyatlarida sinov laboratoriyalari tashkil etilishini ta'minlaydi.

Yana bir masala — hozir tadbirkorlar elektron hisob-faktura va tovar-transport yul xatini alohida 2 ta hujjat sifatida rasmiylashtirayapti. Tadbirkor yuk xatiga 49 ta ma'lumotni majburiy kiritishi kerak.

Hamma sohaga raqamlashtirish kirib kelgan bir paytda bunday amaliyotning nima keragi bor?

Endi, bu hujjatlar yagona shaklga keltiriladi va faqat 4 ta ma'lumot kiritishning o'zi yetarli bo'ladi.

Beshinchidan, eksportni keskin oshirish uchun yangi bozorlarga ko'proq kirib borishimiz kerak. So'rovlarda 30-40 foiz korxonalarimiz qaysi mahsulotga tashqi bozorda talab yuqori, qanday standart kerak, degan savollarga javob topishga qiyinlashini aytgan.

Tashqi bozorda mahsulotlarimiz turi ko'payishiga, eksportchi korxonalarimiz yangi bozorlarga kirib borishiga xizmat qiladigan tizim tashkil etiladi. Bu borada chet elda biznes qilib, katta tajriba orttirgan vatandoshlarimiz bilan eksportchi korxonalarimizni bog'lasak, o'ylaymanki, bu ham katta samara beradi.

Bosh vazir o'rinbosari J.Xodjayev, Savdo-sanoat palatasi boshqasi bunday vatandoshlarimiz bilan yaqindan ishlab, ularni o'zlariga savdo va investitsiya bo'yicha maslahatchi sifatida jalb etadi.

Tashqi ishlar vaziri B.Saidov ham har oyda ana shunday yurtdoshlarimiz bilan muloqot qilib, ularning taklif, tashabbus va loyihalari qo'maklashadi.

Bu yo'nalishda bir yildan keyin sarhisob qilamiz. Natijaga qarab, bu borada eng faol bo'lgan vatandoshlarimizni mukofotlaymiz.

Oldinchidan, yiliga 250 trillion so'mlikdan ziyod davlat xaridlari amalga oshirilmoqda. Shu bois, davlat xaridlariga "mahalliy kontent" talablarini joriy qilish vaqti keldi. Hozir 70 ming mahalliy ishlab chiqaruvchidan 4 mingtasi (6 foizi) kooperatsiya portalida ro'yxatdan o'tgan xolos.

Kelgusi yilgi davlat investitsiya dasturidagi har bir loyiha bo'yicha mahalliy mahsulotlar ulushi qancha bo'lishi aniq belgilanadi.

Davlat xaridida endi mahalliy mahsulot ulushini oshirish rag'batlantiriladi. Jumladan, energetika, neft-gaz, kimyo, metallurgiya, temir yo'l kabi tarmoqlardagi yirik korxonalar 2-3 yillik buyurtmalarini kooperatsiya portaliga oldindan joylashtiradi.

Mahalliy korxonalar esa ushbu buyurtmalar asosida yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yadi. Ularning loyihalari qanday dastlabki bosqichda 100 million dollar yo'naltiriladi.

Yettinchidan, so'nggi yillarda energetika sohasini isloh qilib, xususiy sektorga keng yo'l ochib berdik. Bu orqali 3,5 milliard dollarlik xususiy sheriklik loyihalari ishga tushirildi va yana 31,5 milliard dollarlik 50 ta loyiha bo'yicha ishlar jadal davom etayapti.

Hududiy elektr tarmoqlarining boshqaruvi ham xususiy sektorga berish bo'yicha bir yil tayyorgarlik ko'rdik.

Endi, mana shu jarayonlarda ham amaliy bosqichga o'tamiz. Xususan, joriy yilning oktyabr oyida Samarqand viloyatidagi elektr tarmoqlariga xususiy operator jalb qilish bo'yicha tender e'lon qilinadi. Tenderda g'olib bo'lgan investor 900 ming iste'molchiga xizmat ko'rsatish bilan birga, eskirgan tarmoq va podstantsiyalarni yangilab, yo'qotishlarni kamaytirish hisobiga daromad oladi. Bunda, aholi va tadbirkorlar uchun belgilangan tariflar o'zgaraydi.

Kelgusi yil Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida ham xuddi shunday ishlar amalga oshiriladi.

Sakkizinchidan, yer osti boyliklarini o'zlashtirishga tadbirkorlarni keng jalb etib, ishlab chiqarishni ko'paytirishimiz kerak.

Shu yilning o'zidayoq, 150 tadan ortiq kon va maydonlar tadbirkorlarga sotildi. Yil yakunigacha yana 300 ta kon va maydonlar tadbirkorlarga taklif qilinadi. Qurilishda qum-shag'alga ehtiyojni qoplash maqsadida 110 million kub metr zaxiraga ega 172 ta kon ham tadbirkorlik uchun ajratiladi.

To'rtinchi yo'nalish — xizmatlar sohasiga yangi turtki berish.

O'zbekistonda band aholining 52 foizi xizmatlar sohasida ishlayapti. Ishlab turgan korxonalarining 68 foizi (264 mingtasi) ham xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi. Lekin sohada band bo'lganlarning atigi 4 foizi yuqori qo'shilgan qiymat beradigan yo'nalishda faoliyat yuritayapti.

Shu bois, xizmatlarda, avvalo, IT sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratamiz. Yetti yil oldin deyarli yo'q joydan boshlangan bu soha bugun 1 milliard dollarlik eksport qilish salohiyatiga ega bo'ldi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING MAMLAKATIMIZ TADBIRKORLARI BILAN OCHIQ MULOQOT SHAKLIDA O‘TKAZILGAN UCHRASHUVDAGI NUTQI

Boshlanishi 1-, 2-betda

Bundan tashqari, 1-dekabrden bu korxonalar naqd pulga sotib olgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda hech qanday hujjat talab qilinmaydi. Ularga bahor va yoz mavsumida o‘z binolariga tutash maydonlarda stol-stul va soyabon qo‘yib ishlashga ruxsat beriladi.

Restoran va kafelar ishchilar bilan qisqa muddatli, soddalashtirilgan (kunbay, ishbay) mehnat shartnomasini tuzib, ishlashi mumkin bo‘ladi. Xuddi shu kabi 1-oktabrdan mehmonxona va turoperatorlarga ham to‘langan qo‘shimcha qiymat solig‘ining 20 foizi “keshbek” qilib beriladi.

Beshinchidan, so‘nggi ikki yilda bozorga kirishdagi 13 ta ekskluziv huquqni bekor qilgan edik. Yaqinda yana 7 tasi (turizm, qurilish, shaharsozlik, ekspertiza, aloqa sohasi) bekor bo‘ladi.

Bu orqali 1,5 mingdan ortiq tadbirkorlar uchun bozorga kirish imkoniyati yaratiladi. Misol uchun, mehmonxona faoliyatini sertifikatlash bilan akkreditatsiyasi bor barcha korxonalar shug‘ullanishi mumkin bo‘ladi. Hozir bu xizmat bo‘yicha ekskluziv huquq Turizm qo‘mitasi huzuridagi tashkilotga berilgan.

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining “Shaffof qurilish” tizimi orqali tender savdolari uchun hujjatlarni faqat vazirlik qoshidagi konsalting markazlari tayyorlab berayapti.

Endi 1-oktabrdan xuddi Tadbirkorlik reytingi kabi “Shaffof qurilish” tizimini tadbirkorlarning o‘zi yuritadi. Konsalting markazlari funksiyalari to‘liq xususiy sektorga o‘tkaziladi.

Tadbirkorlar taklif bersa, davlat idoralari ko‘rsatayotgan boshqa xizmatlarni ham xususiy sektorga berishga tayyormiz.

Beshinchi yo‘nalish — biznes uchun to‘siq va g‘ovlarni yanada qisqartirish.

Biz so‘nggi yillarda tadbirkorlik yo‘lidagi byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha katta islohotlarni amalga oshirdik. Lekin tadbirkorlarimiz haligacha ayrim muammolar saqlanib qolayotganini bildirgan.

Birinchiidan, tadbirkorlik faoliyatini to‘xtatishga asos bo‘ladigan qonun buzilish holatlari darajasi belgilanmagan. Oqibatda arzimagan kamchiliklar bilan ham tadbirkorlar faoliyatini to‘xtatib qo‘yish holatlari kuzatilyapti.

Shu bois, 1-noyabrga qadar aholining hayoti va sog‘lig‘iga haqiqiy xavf soluvchi mezonlar reyestri ishlab chiqiladi. Ogohlantirib aytaman, reyestrda yo‘q mezon bo‘yicha tadbirkor faoliyatini to‘xtatgan mansabdor javobgarlikka tortiladi.

Ikkinchiidan, tadbirkorlarni jinoiy javobgarlikka tortish yanada liberalashadi.

Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash, degan jinoyat turi bor. Bunda tadbirkorning to‘lamagan solig‘i 100 million so‘mdan (bazaviy hisoblash miqdorining 300 baravari) ohsa, jinoyatchi bo‘lib qolmoqda. Lekin tadbirkorlarga imkon berilsa, bu summami bemaol to‘lay oladi, buning uchun ularni oylab tergov qilish shart emas.

Shu bois, soliq to‘lamaganlik uchun tadbirkorga jinoyat ishi qo‘zg‘atishga asos bo‘ladigan miqdorni 2 baravargacha oshirishni taklif qilaman. O‘ylaymanki, tadbirkorlarimiz ushbu berilayotgan yengillikni, bildirilayotgan ishonchini suiste‘mol qilmaydilar.

Uchinchiidan, kredit oldi-berdisida bank ham, tadbirkor ham tavakkal qiladi. Lekin amaliyotda bankning huquq va vakolatlari tadbirkorga nisbatan ancha ko‘proq. Masalan,

kredit vaqtida qaytarilmasa, garovga qo‘yilgan mulkni bank shartnoma tuzilgan paytdagi qiymatida sotuvga chiqaradi.

O‘zingiz o‘ylang, 3-4 yil oldin kredit olinganda 100 million so‘mga baholangan mulkni bugungi narxi 30-40 foiz qimmatlashsa, uni qanday qilib, eski qiymatida sotish mumkin?

O‘tgan 6 oyda banklar 1,3 trillion so‘mga baholangan mingdan ziyod garovdagi mol-mulkami auksionga chiqargan.

Yoki kreditning katta qismini qaytargan tadbirkor u yoki bu muammoga duch kelib, qolgan qarzini to‘lay olmay qolsa ham garovga olingan mulk to‘liq savdoga chiqarib yuborilayapti. O‘tgan yili jami qarzdorlik summasi 1,5 milliard so‘m bo‘lgan 22 ta holatda undiruv 35 milliard so‘mlik garovdagi mulkka qaratilgan.

Aytmasangiz ham ko‘zingizdan ko‘rib turibman, bu ko‘pchilik tadbirkorlarni uzoq yillar qiyab kelayotgan muammo.

To‘g‘ri, muammoli kreditlar bilan jiddiy shug‘ullanish kerak. Lekin bu tadbirkorni “tugatish” hisobidan bo‘lmasligi zarur.

Sayxunobod, Uychi, Zarbdor, G‘ijduvon, Yunusobod tumanlari misolida banklar “mijozbay” ishlab, qiyinchilikka uchragan tadbirkorlarga ko‘mak berish bo‘yicha yetarli tajriba ortirdi. Buni davom ettirib, banklarni o‘z mijozini bilan ishlash tizimini yanada yaxshilaymiz.

Endi garovdagi mulkni savdoga chiqarishdan oldin, uning hozirgi bozor qiymati aniqlanadi, qaytmagan qarzdorlik garov qiymatining 15 foizidan kam bo‘lsa, undiruv mulkka qaratilmaydi. Bank mijoziga qarzni boshqa manba hisobidan qoplashga imkon beradi.

Ushbu tashabbuslarni tez kunlarda qonun bilan mustahkamlab qo‘yamiz. O‘ylaymanki, bu takliflar sizlarga ma‘qul.

To‘rtinchiidan, “snoslar” bo‘yicha kompensatsiya to‘lashda haligacha muammolar bor. Hozirda ushbu xarajatlar viloyat budjeti hisobidan qoplanayapti. Lekin ayrim viloyatlar budjetida mablag‘ kam qolayotgani uchun tadbirkorning pulini qoplab berish 5-6 yilga cho‘zilib ketayapti.

Yuqorida yerni auksionga chiqarish bo‘yicha yangi tashabbuslar haqida aytdim. Endi yerni sotishdan tushgan mablag‘lar, avvalo, “snos” bo‘yicha tadbirkorlardan qarzni so‘ndirishga qaratiladi.

Aziz yurtdoshlar, Jahondagi vaziyatni ko‘rib turibsiz. An‘anaviy bozorlarni saqlab qolish, yangilariga kirib borish, buning uchun logistika marshrutlarini diversifikatsiya qilish tobora dolzarb ahamiyat kash etmoqda.

Nima uchun bu yilgi ochiq muloqotni aynan Qoraqalpog‘istonda o‘tkazyapmiz? Chunki Qoraqalpog‘istonga investitsiya kiritib, biznes qilishning boshqa hududlarga nisbatan 3 ta ustunligi bor.

Birinchi — Qoraqalpog‘istonda biznes uchun birorta hududda yo‘q 50 dan ortiq imtiyozlar paketi joriy etilgan.

Ikkinchi — Qoraqalpog‘istonda yer ajratishning soddasi tizimi joriy etilgan.

Uchinchi — katta bozorlarga chiqish uchun eng qulay hududimiz, bu — Qoraqalpog‘iston.

Bugungi ochiq muloqotimiz Jo‘qorg‘i Kenges raisi A.Orinboev, Vazirlar Kengashi raisi F.Ermonov, shahar va tuman hokimlari uchun yangi-yangi loyihalarni boshlash uchun katta imkoniyat.

Qoraqalpog‘istonlik tadbirkorlar kelgan mehmonlarni bir-ikki kun olib qolib, bu yerdagi sharoitlarni ko‘rsata, loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha birgalikda takliflar ishlab chiqsa, barchasini qo‘llab-quvvatlashga tayyorman.

Ochiq muloqotimiz yakuni bo‘yicha o‘n kun muddatda “Qoraqalpog‘istonda biznes qiling” dasturini qabul qilamiz.

O‘ylaymanki, bu dasturda nafaqat markaziy studiyada o‘tirgan 300 ga yaqin tadbirkorlarimiz, balki hududlardagi studiyalardan qatnashayotgan minglab biznes vakillari ham faol ishtirok etadi.

Buning uchun biz Qoraqalpog‘istonga yana qo‘shimcha sharoitlar yaratib beramiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Mana, hamma masalalarni ochiq gaplashib, yechimlarini ham kelishib oldik.

Bugun men so‘zga chiqqan tadbirkor va ishbilanmonlarning fikrlarini eshitib, nihoyatda xursand bo‘ldim.

Sizlarning “Janob Prezident, shuncha sharoit yaratib berayapsiz, biz ham yangi-yangi ish o‘rinlari yaratib, odamlarni daromadli qilishga, kambag‘allikni qisqartirishga qattiq bel bog‘laymiz” degan gaplaringiz meni quvontirdi.

Buning uchun barchangizga chin qalbidan rahmat aytaman.

Sizlarning sharofatingiz bilan minglab odamlar ishli, daromadli bo‘ladi, oila qurish, uy-joyli bo‘lish, bolalarini tarbiyalash, o‘qitish imkoniga ega bo‘ladi. Ishi, daromadi bor odam esa hech qachon yomon yo‘lga kirmaydi, buzz‘unchi ishlarga qo‘l urmaydi.

Shu ma‘noda, tadbirkorlar qatori ularning ishchilari ham yurtimizdagi tinchlik-osoysizlik, barqarorlikdan eng ko‘p manfaatdor bo‘ladi. Vatan tinchligi, mamlakat taraqqiyotini jon-dili bilan himoya qilishga tayyor turadi.

Shu ma‘noda, sizlar tinch, erkin va farovon hayotimiz garovsizlar, desak, o‘ylaymanki, mubolag‘a bo‘lmaydi. **“Tadbirkor — elga madadkor”** degan naqlik chuqur ma‘no bor. Lekin shunday

katta mas‘uliyatni zimmasiga olgan tadbirkorning o‘ziga kim madadkor?

Agar qaysi hokim o‘zi hududini gullab-yashnab, taraqqiy topishni istasa, avvalo, tadbirkor va yana bir bor tadbirkorga chinam madadkor bo‘lishi kerak.

Shu munosabat bilan, ilgari aytgan so‘zimni yana bir bor takrorlashni zarur, deb bilaman.

Hurmatli tadbirkor va ishbilanmonlar, hech narsadan cho‘chimang. Biling, ortingizda Prezident turibdi!

Bugun sizlar bilan muhokama qilgan barcha masalalar bo‘yicha bir hafta ichida katta farmon qabul qilinadi.

Parlamentimiz rahbarlaridan ko‘tarilgan masalalar bo‘yicha qonun loyihalari kirishini kutib o‘tirmasdan, deputatlardan iborat guruhtar tuzib, hujjatlarni ishlab chiqishga tezroq kirishishlarini so‘raymiz.

Bosh vazirga ham hukumat qarorlarini tezroq qabul qilish topshiriladi.

Bu ishlarning amaldagi ijrosi ustidan qattiq nazorat tizimi bo‘ladi.

Savdo-sanoat palatasi (Vahobov), Biznes ombudsman (Qosimov) faoliyati yo‘lga qo‘yilgan muloqot muammasida har hafta bitta sohadagi muammolarni tadbirkorlar bilan muhokama qiladi.

Bunda mas‘ul hukumat a‘zolari va viloyat hokimlari ham qatnashishi shart. Ko‘tarilgan masalalar yechimlarini Bosh vazir A.Aripov har o‘n besh kunda ko‘rib chiqadi, katta loyihalarni amalga oshiraman, degan tadbirkorlarni shaxsan o‘zi qabul qiladi va hukumatdan unga yordam beradigan rahbarni birlashtiradi.

O‘zim ham har oy bittadan soha vakillari va yirik investor bilan bevosita uchrashaman.

So‘ziming oxirida hammangizga sihat-salomatlik, yutuq va omadlar tilab qolaman.

TADBIRKORLAR BILAN OCHIQ MULOQOT: MUAMMOLAR MUHOKAMA QILINIB, TAKLIFLAR QO‘LLAB-QUVVATLANDI

Boshlanishi 1-betda

Bugungi kunda 100 dan ziyod ishchisi bor korxonalar 3 mingga yaqinlashib, ulardagi ish o‘rni bir yilda 440 mingga ko‘paydi. Xususiy sektorda 5 million so‘mdan ko‘p maosh oladigan ishchilar 1 milliondan oshdi. Shundan 370 mingi 10 million so‘mdan ziyod oylik oladi. Bular tadbirkorlar “soyadan chiqib”, qonuniy faoliyat, sog‘lom raqobat yo‘liga o‘tayotganidan dalolat beradi.

Yana bir misol. Tadbirkorlik reytingida “A” va “B” — yaxshi toifaga kiruvchi korxonalar 91 mingga ko‘paygan, yana 170 ming korxonaga eng past — “D” toifadan chiqarilgan. Buning hisobiga soliq tekshiruvlari o‘tgan yilga nisbatan 2 karra qisqargan. Lekin shu davrda yirik soliq to‘lovchilar tushumlari 10 foizga, viloyat darajasidagi korxonalarda 25 foizga, tuman tadbirkorlari to‘layotgan soliqlar 40 foizga o‘sgan. Bu soliqchilarning ish uslubini o‘zgarayotgani, biznes qilish erkinlashgani natijasi.

Qo‘shni davlatlar bilan aloqalar misli ko‘rilmagan darajaga chiqdi. O‘zbekiston mahalliy korxonalar uchun ham, chet el kompaniyalari uchun ham katta bozorga, mintaqadagi sanoat xabigaya aylandi. Yaqinda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti ilk bor 100 milliard dollardan oshdi. Joriy yilning o‘tgan olti oyida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya hajmi o‘tgan yilga nisbatan 2 karra o‘sb, 14 milliard dollarga yetdi. Bunday raqamlar 33 yillik tariximizda bo‘lmagan.

— Bularning barchasi sakkiz yil oldin o‘zaro ishonch asosida boshlagan islohotlarimiz, tadbirkorlar bilan yelkama-yelka turib, doim muloqotda bo‘lib ishlaganimiz natijasi. Hali imkoniyatlarimiz bundan bir necha karra ko‘p. Eng muhimi, ularni ishga solishga qodir bo‘lgan sizdek vatanparvar va jonkuyar tadbirkorlarimiz bor, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari beshita yo‘nalishda yangi tashabbuslarni aytib o‘tdi.

Birinchi yo‘nalish — kichik va o‘rta biznes uchun moliyaviy resurslarni ko‘paytirish.

Avvalo, endi kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlashda barcha banklar va mikromoliya tashkilotlari ishtirok etishi mumkin bo‘ladi. Mikroreditlar miqdori 3

karra oshirilib, 300 million so‘mga yetkaziladi. Bunda kreditning 100 million so‘mgacha bo‘lgan qismiga garov talab qilinmaydi.

Ikkinchiidan, mikromoliya xizmatlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash davom ettiriladi. Ularga joriy yildagi 1,6 trillion so‘mga qo‘shimcha 1 trillion so‘m resurs ajratiladi. Bundan tashqari, Mikroreditbank ham o‘zining mikromoliya tashkilotlari orqali yil yakunigacha yana 1 trillion so‘m jalb qiladi. Ustav kapitali kamida 50 milliard so‘m bo‘lgan mikromoliya banklari tashkil etish mumkin bo‘ladi. Shuningdek, mikromoliya tashkilotlari uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratilib, tadbirkorlarga xorijiy valyutada xizmat ko‘rsatish va litsenziya asosida to‘lov tashkiloti sifatida faoliyat yuritishga ruxsat beriladi.

Uchinchiidan, O‘zbekiston Prezidentining shu yil 12-avgustdagi farmoniga muvofiq, faktoring tashkiloti uchun keng yo‘l ochildi. Endi ular xorijiy valyutada ham xizmat ko‘rsatadi. Bu bo‘yicha elektron platforma ishga tushirilib, unda tadbirkorlar o‘ziga qulay moliyaviy mahsulotni tanlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Umuman, faktoringni ommalashtirish hisobidan tadbirkorlarga aylanma uchun 20 trillion so‘m, eksportchi korxonalariga 1 milliard dollar qo‘shimcha moliyaviy resurslar paydo bo‘ladi.

To‘rtinchiidan, islom moliyasiga doir qonun ishlab chiqiladi. Bu yangi moliyaviy xizmatlar taqdim etilishi, ko‘p investorlar kirib kelishi va 5 milliard dollarlik qo‘shimcha resurs paydo bo‘lishiga turki beradi.

Beshinchidan, davlat jalb qilgan mablag‘larni yirik korxonalariga berish amaliyotidan bosqichma-bosqich voz kechiladi. Bunday mablag‘larni berish ikki yil ichida kamida 40 foizga qisqaradi. Banklar buning hisobidan kamida 30 trillion so‘mni xususiy biznesga yo‘naltiradi.

Ikkinchi yo‘nalish — biznesni infratuzilma, yer va energiya bilan ta‘minlash.

Ochiq muloqot doirasida kelib tushgan 2 mingga murojaat yer va infratuzilma bilan bog‘liq. Yangi investitsiya loyihalarida yer sotib olish xarajatlari keskin oshyapti. Shu bois, endi tadbirkor auksiondan yer sotib olganda, unga qo‘shilgan qiymat solig‘i hisoblab bekor qilinadi. Toshkent shahri va viloyat markazlarida

sotilgan yer bo‘yicha xarid summasini uch yilgacha, qolgan hududlarda besh yilgacha, 4 va 5-toifa tumanlar uchun esa o‘n yilgacha bo‘lib-bo‘lib to‘lashga ruxsat beriladi.

Ikkinchiidan, endi yangi yerlarni ajratishda binolarni loyihalashdan obyektini topshirishgacha bo‘lgan muddatlar majburiy ko‘rsatiladi.

Uchinchiidan, har bir yer uchastkasi uchun asosiy faoliyat turini qaysilariga almashtirish mumkinligi, qanday yordamchi inshootlarni joylashtira olishi aniq belgilab beriladi. Buning uchun 1-yanvardan yer uchastkalari va kapital qurilish obyektlarining yagona klassifikatori joriy etiladi.

To‘rtinchiidan, sanoat korxonalariga elektr va tabiiy gaz bo‘yicha cheklavlar qisqartiriladi. Ya‘ni elektr va gaz iste‘moli limitdan 20 foizgacha oshib ketsa ham bazaviy tarif saqlanib qoladi. Agar iste‘mol 20 foizdan o‘tib ketsa, oshgan qismiga to‘lov 20 foiz qimmatlashadi. Shuningdek, endi “inkasso” bo‘lganda ham kommunal xizmatlarga to‘lovlar to‘xtatilmaydi.

Uchinchi yo‘nalish — ichki bozorda teng raqobat muhitini yaratish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish.

Shu maqsadda Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayoni davom ettirilib, raqobat rivojlantiriladi. Bu borada metallurgiya, kimyo, energetika va telekommunikatsiya tarmog‘ida ekskluziv huquqlar bekor qilindi. Endi korporativ xaridlarda ishlab chiqarish uchun olinadigan mahsulotlarga ham narx ustuvorligi bekor qilinadi. Bundan buyon hech kimda alohida huquq bo‘lmaydi, xoh davlat strategik korxonasi bo‘lsin, xoh xususiy korxonaga yoki xorijiy investor bo‘lsin, iqtisodiyotda barcha teng sharoitda ishlaysin.

Ikkinchiidan, tarmoqlarni rivojlantirishga berilgan mablag‘dan 200 million dollari eksportdoli muloyalash uchun yo‘naltiriladi. Shundan 50 million dollari bank kreditlari uchun kafillikka beriladi. Bu mablag‘lar hisobidan bir yil ichida qo‘shimcha 1 milliard dollar eksport bo‘ladi.

Uchinchiidan, yuk tashish bo‘yicha “E-logistika” platformasi ishga tushirilib, eksportchilar uchun qaysi korxonada qancha

ruxsatnoma borligini ko‘rish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish imkonini yaratiladi.

To‘rtinchiidan, endi chetdan uskuna va butlovchi qism olib kelishda shartnoma muddati buzilmasa, muddati o‘tgan qarzdorlik bo‘lmaydi. Bundan buyon bojxona organining eksportni tasdiqlovchi elektron ma‘lumoti qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarish uchun asos bo‘ladi, boshqa ortiqcha hujjatlar talab etilmaydi.

Beshinchidan, chet elda biznes qilib, katta tajriba orttirgan vatandoshlarimiz bilan eksportchi korxonalar hamkorligi kengaytiriladi.

Oltinchiidan, davlat xaridida mahalliy mahsulot ulushini oshirish rag‘batlantiriladi. Jumladan, energetika, neft-gaz, kimyo, metallurgiya, temir yo‘l kabi tarmoqlardagi yirik korxonalar 2-3 yillik buyurtmalarini kooperatsiya partaliga oldindan joylashtiradi. Mahalliy korxonalar esa ushbu buyurtmalar asosida yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yadi. Ularning loyihalariga dastlabki bosqichda 100 million dollar yo‘naltiriladi.

Yettinchiidan, hududiy elektr tarmoqlari boshqaruviga xususiy sektor jalb etiladi. Xususan, oktyabrda Samarqand viloyatidagi elektr tarmoqlariga xususiy operator jalb qilish bo‘yicha tender e‘lon qilinadi. Kelgusi yil Jizzax va Sirdaryoda ham xuddi shunday ishlar amalga oshiriladi.

Sakkizinchiidan, yil yakunigacha yana 300 ta kon va maydonlar tadbirkorlarga taklif qilinadi. Qurilishda qum-shag‘alga ehtiyojni qoplash maqsadida 110 million kub metr zaxirali 172 ta kon ham tadbirkorlik uchun ajratiladi.

To‘rtinchi yo‘nalish — xizmatlar sohasiga yangi turki berish.

O‘zbekistonda band aholining 52 foizi xizmatlar sohasida ishlaysapti. Endi barcha jabhada sun‘iy intellekt texnologiyalari keng joriy qilinadi. IT-parkda sun‘iy intellekt markazi ochiladi. Loyihalarni moliyalashtirish uchun 50 million dollar ajratiladi.

Ikkinchiidan, startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash ekotizimi yaratiladi. Buning uchun venchur jamg‘armalar faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Shuningdek, startap xorijdan olib kelgan har 1 dollar investitsiyasiga davlat ham 1 dollar resurs ajratadi. Startap ishlarnalarini patentlash va savdo belgilarini ro‘yxatdan

o‘tkazish kabi xarajatlarni davlat qoplab beradi.

Uchinchiidan, xizmatlarni mahalliyashtirish maqsadida bir yil ichida 3 ming mutaxassis Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Turkiyadagi ishlab chiqaruvchi kompaniyalarga malaka oshirishga yuboriladi. Yirik korxonalariga servis ko‘rsatishda mahalliy korxonalar ishtirokini kengaytirish dasturi ishlab chiqiladi.

To‘rtinchiidan, 1-yanvardan umumiy ovqatlanish korxonalariga qo‘shilgan qiymat solig‘ining bir qismi tadbirkorga “keshbek” sifatida qaytarib beriladi. Bunday soliq to‘lashga o‘tgan restoran va kafelarga foyda solig‘i 2 karra kamayadi. Bundan tashqari, 1-dekabrden bu korxonalar naqd pulga sotib olgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini kirim qilishda hech qanday hujjat talab qilinmaydi. Restoran va kafelar ishchilar bilan qisqa muddatli, soddalashtirgan shartnomasini tuzib ishlashi mumkin bo‘ladi.

Beshinchidan, endi 1-oktabrda xuddi Tadbirkorlik reytingi kabi “Shaffof qurilish” tizimini tadbirkorlarning o‘zi yuritadi. Konsalting markazlari funksiyalari to‘liq xususiy sektorga o‘tkaziladi.

Beshinchi yo‘nalish — biznes uchun to‘siq va g‘ovlarni yanada qisqartirish.

Birinchiidan, tadbirkorlik uchun to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida aholining hayoti va sog‘lig‘iga haqiqiy xavf soluvchi mezonlar reyestri ishlab chiqiladi. Unda yo‘q mezon bo‘yicha tadbirkor faoliyatini to‘xtatgan mansabdor javobgarlikka tortiladi.

Ikkinchiidan, tadbirkorlarni jinoiy javobgarlikka tortish yanada liberalashadi.

Buning uchun biz Qoraqalpog‘istonga yana qo‘shimcha sharoitlar yaratib beramiz. Aziz va muhtaram vatandoshlar! Mana, hamma masalalarni ochiq gaplashib, yechimlarini ham kelishib oldik. Bugun men so‘zga chiqqan tadbirkor va ishbilanmonlarning fikrlarini eshitib, nihoyatda xursand bo‘ldim. Sizlarning “Janob Prezident, shuncha sharoit yaratib berayapsiz, biz ham yangi-yangi ish o‘rinlari yaratib, odamlarni daromadli qilishga, kambag‘allikni qisqartirishga qattiq bel bog‘laymiz” degan gaplaringiz meni quvontirdi.

Buning uchun barchangizga chin qalbidan rahmat aytaman. Sizlarning sharofatingiz bilan minglab odamlar ishli, daromadli bo‘ladi, oila qurish, uy-joyli bo‘lish, bolalarini tarbiyalash, o‘qitish imkoniga ega bo‘ladi. Ishi, daromadi bor odam esa hech qachon yomon yo‘lga kirmaydi, buzz‘unchi ishlarga qo‘l urmaydi.

Shu ma‘noda, sizlar tinch, erkin va farovon hayotimiz garovsizlar, desak, o‘ylaymanki, mubolag‘a bo‘lmaydi. **“Tadbirkor — elga madadkor”** degan naqlik chuqur ma‘no bor. Lekin shunday



Munosabat

BIZNES UCHUN TO'SIQ VA G'OVLAR YANADA QISQARADI

TASHABBUS, FIKR VA G'OYA

QONUNCHILIK TAKOMILIGA XIZMAT QILMOQDA

Ernazar DOSANOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil — biznes ombudsmanning Qoraqalpog'iston Respublikasidagi devoni bosh inspektori

Boshlanishi 1-betda

Ochiq muloqotga jiddiy tayyorgarlik ko'rdi. Biznes vakillari bilan tegishli tashkilotlar ishtirokida ko'plab uchrashuvlar o'tkazilib, ularning fikrlari, takliflari o'rganildi. Umumlashtirilib, zarur choralar ko'rdi.

Hozirgi kunda Qoraqalpog'istonda 48,9 mingta tadbirkorlik subyekti faoliyat yuritayotgan bo'lsa, shundan 27,4 mingtasi xo'jalik yurituvchi subyekt, 25,5 mingtasi yakka tartibdagi tadbirkordir. Orolbo'yi iqtisodiyoti rivojida ularning munosib ulushi bor, albatta. Prezidentimiz ochiq muloqotda tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash, ularga qulay investitsiyaviy va ish muhiti yaratib berish borasida ko'plab takliflarni o'rta tashladi. Bugun har bir sohada bo'lgani kabi tadbirkorlikda yangicha yondashuv davr talabiga aylanayotganini, barcha mutasaddilar shunga mos faoliyat yuritishi shartligini alohida ta'kidladi. Qayd etilganidek, "tekshirsa — qo'rqadi, qo'rqasa — soliq to'laydi", degan qarash bilan ish yurmasligini bugun hamma tushunib yetgan. Ya'ni mansabdorlar tadbirkor bilan muloqot qilishga, ularni eshitishga o'rgandi. Biznes muhiti bo'yicha tub burilish yasaldi.

O'z navbatida, tadbirkorlarimiz ham o'z haq-huquqlarini anglab yetgan. Qaysi masalada kimga murojaat qilishni yaxshi biladi. Jumladan, bizda joriy yilning 6 oyida soha vakillarining

261 ta murojaati ko'rib chiqilib, aksariyatida tadbirkorlarning huquqlari tiklandi. Murojaatlar ko'proq bank, moliya va kredit, soliq masalalariga oid edi. Demak, hali ushbu yo'nalishlarda qilinadigan ishlarimiz ko'p. Shuningdek, yer, kadastr, arxitektura, infratuzilma, sud qarorlari, ruxsatnoma va litsenziyalar olish, hujjatlarni rasmiylashtirish masalalarida ham tadbirkorlarimiz oldida muayyan to'siqlar bor. Shu bois, ochiq muloqotda Prezidentimiz mazkur masalalarga alohida to'xtalib o'tdi. Xususan, kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirish zarurligi aytiladi. Aslida, bu borada ishlar boshlangan. Ya'ni o'tgan yili kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun yangi tizim joriy qilindi. Natijada Biznesni rivojlantirish banki va Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi tashkil etilib, yil boshidan 35 mingdan ortiq tadbirkorga jami 3,5 trillion so'm mikro kredit ajratildi. Bundan tashqari, "Biznesga birinchi qadam" dasturi bo'yicha tadbirkorlikni endi boshlayotgan 115 ming aholiga 1 trillion so'm mikroqarz berildi. Endi ushbu tajriba yanada kengaytiriladi. Demak, tadbirkorlarni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash ishlari izchil davom ettiriladi. Qolaversa, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash bir yoki ikki moliya muassasasiga bog'liq bo'lib qolmaydi. Jarayonda barcha banklar va mikromoliya tashkilotlari ishtirok etishi mumkin.

Ochiq muloqotda so'ngi yillarda yer va mulkka yondashuv butunlay o'zgartirildi, xususiy mulk



daxlsizligini ta'minlash bo'yicha katta amaliy ishlar qilingani qayd etildi. Shu bilan birga, yerdan investitsiya sifatida foydalanish tizimi hali orqada ekani ko'rsatib o'tildi. Demak, ushbu yo'nalishda ham kamchiliklar kam emas. Bu esa biznes vakillari bilan ishlovchi tashkilotlar zimmasiga mas'uliyatli vazifa yuklaydi. Bular ochiq muloqotda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan masalalarning ayrimlari, xolos.

Keyingi yillarda mamlakatimizda tadbirkorlar va biznes ombudsman o'rtasida hamkorlik mustahkamlanib borayotgani amaliy harakatlarga yo'l berib, mavjud kamchiliklarni bartaraf etishga xizmat qilayotir. Toki tadbirkorlar ro'para keladigan ba'zi muammolar yechimini topa olmay, har eshikda sarsan bo'lmasin.

Ochiq muloqot davomida aytiladigan har bir tashabbus, g'oya va fikr, muammo hamda takliflar doimiy ravishda o'rganilib, ular bo'yicha qonunchilikning takomillashtirilishi esa soha rivojiga katta turtki beradi.

Omon DO'STMUHAMMEDOV,
"Akmal Umid Baraka" MCHJ rahbari, "Faol tadbirkor" ko'krak nishoni sohibi

Erta tongdan kelib, ishlab chiqarish sexlarini aylanaman, ishchilar bilan suhbatlashaman, ahvolini so'rayman. Ulardan ko'p narsa o'rganaman. Ular o'z takliflarini aytadi. Gohida bahslashib ham ketamiz. Lekin hammamizning maqsadimiz bitta — aholiga sifatli mahsulot yetkazib berish. Zero, ayni paytda raqobatchilarimiz juda serob. Albatta, raqobat bor joyda rivojlanish, sifat bo'ladi.

Elektrotexnika ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonamizga 2013-yilda asos solgan edik. Hozir bir yerda 660 ishchi xizmat qilmoqda. Mahsulot turi 50 dan 500 ga yetdi. Bu mahsulotlarning katta qismi chetdan olib kelinardi. U davrda valyuta konvertatsiyasi bilan bog'liq muammolar tufayli yurtimiz xalqaro savdo uchun yopiq mamlakat bo'lib, eksport va import amaliyotida juda ko'p to'siqlar mavjud edi.

Shukrki, keyingi yillarda bu sohaga e'tibor natijasida valyuta siyosati liberallashtirildi, imtiyoz va imkoniyat yaratildi. Xususan, Prezidentimizning tegishli qarori bilan elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarayotgan bizniki kabi korxonalar foyda solig'idan 50 foiz, mulk solig'idan 100 foiz ozod qilindi. Bu imtiyozlardan qolayotgan foydani ishlab chiqarishni kengaytirishga sarflayapmiz. Natijada 600 ish o'rinni yana bir korxonaga o'chayapmiz.



Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqotini diqqat bilan kuzatdim. Muloqotda bildirilgan fikrlar, to'g'risi, meni to'qlantirdi. Nimaga? Chunki hozir qator elektrotexnika qismlarini Xitoydan olib kelyapmiz. Kelgusida bu mahsulotni o'zimizda ishlab chiqarishni maqsad qilganmiz. Buning uchun barcha imkoniyatlarimiz yetarli.

Muloqotda Prezidentimiz aynan shu masalaga e'tibor qaratdi. Jumladan, yiliga 250 trillion so'mdan ziyod davlat xaridlari amalga oshirilayotgani, shu bois, davlat xaridlarida mahalliy mahsulotlar ulushini oshirish vaqt kelgani qayd etildi. Bizni quvontirgani, kelgusi yilgi davlat

investitsiya dasturidagi har bir loyiha bo'yicha mahalliy mahsulotlar ulushi qancha bo'lishi aniq belgilanib, davlat xaridida mahalliy mahsulot ulushini oshirish rag'batlantirilishi bo'ladi.

Yana bir yangilik. Endi mikroreditlar miqdori 3 karra oshirilib, 300 million so'mga yetkaziladi. Bunda kreditning 100 million so'mgacha bo'lgan qismiga garov talab qilinmaydi. Bu maqsadga bir yilda 10 trillion so'm beriladigan bo'ladi.

Prezidentimiz tadbirkorlik uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish bo'yicha muhim yangi tashabbuslarni ilgari surdi. Kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirish, biznesni infratuzilma, yer va energiya bilan ta'minlash, ichki bozorda teng raqobat muhitini yaratish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish hamda xizmatlar sohasiga yangi turtki berish, biznes uchun to'siq va g'ovlarni yanada qisqartirish kabi qator tashabbuslar shular jumlasidandir.

Ushbu taklif va tashabbuslar hayotga to'laonliq ta'tbiq etilishi ortidan tadbirkorlar safi yanada kengayib, ular o'z faoliyatida erishadigan yutuqlari bilan O'zbekistondagi islohotlar lokomotiviga aylanadi. Mamlakatimizda tadbirkorlar qancha ko'p bo'lsa, ular yanada ko'proq daromad ko'rsa, davlatimiz ham shuncha boy bo'ladi.

YURTDOSHLARIMIZ ISHBILARMON, TASHABBUSKOR

BUGUN ULARGA YARATILAYOTGAN SHAROIT YAQIN KELAJAK UCHUN KATTA VA ISHONCHLI INVESTITSIYADIR

Shoira SHAMATOVA,
"Olimjon qizi Shoiraxon" fermer xo'jaligi rahbari

Bolaligidan texnikaga qiziqardim. Bora-bora yer olib, fermerlik qila boshladim, traktor haydashni o'rgandim. Ayol kishi bo'la turib, katta texnikada yer shudgorlash, paxta terish yoki bug'doy o'rish boshqalarga erish tuyulsa-da, menga g'urur bag'ishladi.

Yurtimizda har bir kishi iqtidorini ishga solib mehnat qilsa, mashaqqatidan qochmasa, uning qozoni qaynab, jamiyatda o'z o'rini topishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Ochiq'ni, menga ham bolalik orzum ushulishi yo'lida mana shunday imkoniyatlar yaratilganidan faxrlanam.

2024-yil men uchun omadli keldi — "Shuhrat" medali bilan taqdirlandim. Traktorchi ayolning ko'ksida medal bo'lishi men uchun juda katta faxr, e'tibor.

Oliy ma'lumotli bo'lmasam ham fermer xo'jaligimiz miqyosida erishayotgan natijalarimiz yuqori baholalanib, Savdo-sanoat palatasining Sayxunobod tumani bo'limiga rahbarlikka tayinlandim.

Tumanda bizga ishonadigan, suyanadigan tadbirkorlar juda ko'p. Bugun palataning tumandagi mas'uliyatida barcha tadbirkorlarimizning taklif va tashabbuslari, muammolari bo'yicha har qanday idoraga bema'lol kira olaman va birgalikda ularning masalalarini hal qilamiz.

Har hafta tadbirkorlar kuni bor. Shu kuni tadbirkorlik rivojiga doir barcha masalalarni mas'ullar va tadbirkorlar ishtirokida muhokama qilamiz, hal etish choralarini ko'ramiz. O'z navbatida, tuman darajasida hal bo'lmaydigan muammolar viloyatga olib chiqiladi. Unda ham



yechim topilmagan masalalar esa respublika darajasida hal etilmoqda.

Bular aytishga oson tuyulishi yoki oddiy ko'rinishi mumkin. Lekin ayni shu jihat tadbirkorlarimizga katta ishonch, g'ayrat bermogda, joylarda tadbirkorlik faoliyati keng quloch yoyishiga imkoniyat yarataypti, rag'bat bo'lyapti.

Ya'ni aytaylik, biror biznes egasining ishi qayerdadir to'xtab qolgan bo'lsa, bunday uchrashuvlarda ularning faoliyatidagi muammolar o'rganilayotgani, amaliy qo'llab-quvvatlanayotgani o'sha biznesning oyoqqa turishiga zamin yaratmoqda. Asosiysi, o'zini tiklaganda ham oldingiga nisbatan yanada katta shijoat bilan faoliyatini davom ettirishiga erishilaypti.

Shulardan kelib chiqib, qaysidir ma'noda o'z ishimdan qanoat hosil qilib yurgandim. Prezidentimizning Qoraqalpog'istonda tadbirkorlar bilan o'tkazgan navbatdagi ochiq muloqotdan

keyin vaziyat tamoman o'zgardi. Chunki ushbu yo'nalishda berilayotgan juda ko'p imtiyoz va erkinliklar, qulay sharoitdan keyin faoliyatimizni shunga yarasha jadallashtirishimiz kerak-da!

Davlatimiz rahbari viloyatimizga tashrif chog'ida "Sayxunobod tajribasi", tomorqadan foydalanishning ahamiyatiga alohida to'xtalgan edi. Shundan kelib chiqib, bugun mahallalar uzumchilik, issiqxonachilik kabi turli yo'nalishlarga ixtisoslashtirilyapti.

Masalan, tumanimizdagi Paxtakor mahallasida uzumchilik ommalashmoqda. Aholi bilan muloqotlar natijasida bir kunda 50 ta xonadon egasi shu yo'nalishni tanladi. Boshqa xonadonlarda ham shunday: kimdir tomorqasida issiqxona barpo etayotgan bo'lsa, boshqalari kasanachilik asosida ishlab chiqarish bilan band. Umuman olganda, tumanimizda yurtodoshlarimizning turmush tutumi, dunyoqarashi o'zgaraypti, ularning imkoniyatlarini ishga solishga yo'naltirilgan umumiy sa'y-harakati ortidan kichik sanoat rivojlanaypti, hudud iqtisodiyoti o'syapti.

Avval ko'p e'tibor bermas ekanman, endi bir mas'ul o'laroq to'la ishonch bilan ayta olamanki, odamlarimiz tadbirkor, tashabbuskor. Faqat ularga bugungidek sharoit yaratib berilsa, biznes sohasidagi uzoq yillik bir joyda deysimb turishlardan keyin boshlanishiga yo'l-yo'riq ko'rsatilsa, o'ylaymanki, bu soha yil yoki oy u yoqda tursin, kun, soat sayin rivojlanadi. Chunki xalqimizda "Qovun qovundan rang oladi" degan gap bor, tadbirkorlik muhiti ham shunday: biribiridan ko'rib, o'rganib, odamlarimiz o'rtasida BO'LAR EKAN-KU, degan xulosa shakllanib, shu orqali soha kengayib, tadbirkorlarimiz ko'payib boraveradi. O'z navbatida, bu yangi O'zbekistonda barpo etish yo'lida yaqin kelajak uchun katta va ishonchli investitsiyadir.



YUTUQLARGA UCH ASOS

Sherzod NIYAZIMBETOV,
"Biogumus" fermer xo'jaligi rahbari (Nukus tumani)

Ochiq muloqotda bevosita ishtirok etib, shu narsaga amin bo'ldimki, O'zbekistonda soha vakillarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlar bundan buyog'iga ham izchil va faol davom ettiriladi. Davlatimiz rahbari buni o'z nuqtida bir necha bor ta'kidladi. Ayniqsa, "Tadbirkor — elga madadkor" degan naqlda chuqur ma'no bor. Lekin shunday katta mas'uliyatni zimmasiga olgan tadbirkorning o'ziga kim madadkor? Agar qaysi hokim o'z hududining gullab-yashnab, taraqqiy topishini istasa, avvalo, tadbirkor va yana bir bor tadbirkorga chinakam madadkor bo'lishi kerak. Hurmatli tadbirkor va ishbilarmonlar, hech narsadan cho'chimang. Biling, ortingizda Prezident turibdi", degan gaplari menga katta kuch va g'ayrat bag'ishladi.

"Biogumus" fermer xo'jaligini 2018-yildan buyon boshqarib kelyapman. Asosan, pomidor yetishtirish va uning qo'qisini eksport qilish bilan shug'ullanamiz. Prezidentimizning Orolbo'yiga alohida e'tibori va g'amxo'rliqi tufayli faqatgina



Qoraqalpog'iston uchun qabul qilingan 7 ta farmon va qaror asosida hudud aholisiga, jumladan, biz, yosh tadbirkorlarga katta imkoniyat yaratildi.

Mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni o'ylantirayotgan muammolarni bartaraf etishda ochiq va samimiy muloqotning o'rni bo'lakcha. Navbatdagi muloqot nafaqat hudud yoki butun O'zbekiston tadbirkorlarida, balki

xorijdagi yirik ishbilarmonlarda katta qiziqish uyg'otganiga ishonaman. Chunki muloqot davomida o'zaro hamkorlikdagi ishlar o'ld ko'plab takliflar o'rta tashlandi, yangi istiqbolli loyihalar, dasturlar haqida batafsil ma'lumot berildi.

Bugun yurtimizda tadbirkorlik bilan shug'ullanaman, o'z biznesimni boshlayman degan odamga sharoitlar mavjud. Buni o'z faoliyatimda yaqqol his qilish turibman.

Nima uchun bu yilgi ochiq muloqot aynan Qoraqalpog'istonda o'tkazildi? Buni ham davlatimiz rahbari asoslab berdi: chunki Qoraqalpog'istonga investitsiya kiritib, biznes qilishning boshqa hududlarga nisbatan ucha ustunliq bor. Birinchisi, Qoraqalpog'istonda biznes uchun 50 dan ortiq imtiyozli paketi qilib berilgani, bu boshqa birorta hududda mavjud emas. Ikkinchisi, hududda yer ajratishning soddasi tizimi joriy etilgan. Uchinchisi, katta bozorlarga chiqish uchun eng qulay hudud bu — Qoraqalpog'iston. Mana shuning o'zi tadbirkorlar yutuqlariga asos bo'ladi. Biz esa ana shu imkoniyat va ishonchni oqlashga, yurtimizning iqtisodiyotini taraqqiy ettirish, aholi turmush farovonligini ta'minlashga doim tayyormiz.

YANGI O'ZBEKISTONGA MUNOSIB NUFUZLI ILMIIY LOYIHA

O'zbekiston qadimdan sivilizatsiyalar vatani bo'lib kelgan. Yurtimizda arablar istilosiga qadar ham yuksak taraqqiyot yuz bergani tarix zarvarlariga bitilgan. Musulmon dunyosida "Islom daraxtining ildizlari Arabistonda bo'lsa ham uning shoxlari Movarounnahrda hosil berdi" degan haqli qarash mavjud. Bu bejiz emas. Chindan ham islomning kirib kelishi bilan yurtimizda yangi tarixiy davr boshlanib, katta yuksalishlar sodir bo'ldi, keyinchalik islom sivilizatsiyasi nomi bilan mashhur jarayonlar yuz berdi.

Bahrom ABDUHALIMOV,
Fanlar akademiyasi
vitse-prezidenti, tarix fanlari
doktori, professor

Islom sivilizatsiyasi va uning o'ziga xosligi

Eramizning VII asrida paydo bo'lib, tez orada Osiyo, Afrika va Yevropaning ko'plab o'lkalariga yoyilgan islom dini ushbu mintaqalar xalqlariga nafaqat yangi diniy e'tiqod, balki davlat boshqaruvining yangicha usullaridan tortib, yangicha iqtisodiy munosabatlar, yangicha ijtimoiy tuzum, yangicha ilm-fan, madaniyat, san'at, me'morlik kabilarni tortiq etdi. O'zidan oldingi sivilizatsiyalar yutuqlari va ilg'or tajribalarini samarali hamda ijodiy tarzda o'zlashtirgan holda o'zining yangi ishlanmalarini ishlab chiqqan islom jahon sivilizatsiyasiga siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yangi shakllarini olib kirdi. Shu tariqa islom nafaqat yangi din, balki yangi bir sivilizatsiya sifatida maydonga chiqdi.

O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasida Markaziy Osiyo xalqlarining islomgacha bo'lgan So'g'd, Baqriya, Xorazm, Qang', Eftalitar, Kushon va Turk xoqonligi madaniyatlarini, Qadimgi Yunoniston va Qadimgi Rim, islom dini bilan bir vaqtda mavjud bo'lgan Xitoy, Hind va boshqa o'lkalar madaniyatlarini usullari ham ko'zga tashlanadi. Ayni vaqtda mazkur sivilizatsiyaning katta qismini O'zbekiston zaminida yashagan xalqlarning islom va boshqa madaniyatlarga tayangan holda yaratgan kashfiyotlari, ixtirolari va ishlanmalari tashkil etadi. Yurtimizdagi islom sivilizatsiyasi islom ta'limotiga asoslangan qator madaniyatlar sintezi va O'zbekiston xalqlarining islom davridagi yangi ishlanmalaridan tarkib topgan hodisa sifatida islom sivilizatsiyasining o'ziga xos shaklini — insonparvarlik, tinchlikparvarlik, taraqqiyotparvarlik, ma'rifatparvarlik, diniy va etnik bag'rikenglik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan sivilizatsiyani jahonga



taqdim etdi. Islom dinining bugungi O'zbekiston zaminida qaror topgan shakli o'zining taraqqiyotparvarlik, bag'rikenglik va dunyoviylik tamoyillari bilan ajralib turgani sababli ushbu zaminida yuksak iqtisodiy, ilmiy va madaniy taraqqiyot yuz berdi.

Uyg'onish davrlari — olamshumul hodisa

Yuqorida eslatib o'tilgan xususiyatlari tufayli O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi o'zining ikki uyg'onish davri — Markaziy Osiyo ilk uyg'onish davri (IX-XII asrlar) va Markaziy Osiyo Temuriylar uyg'onish davriga (XIV-XVI asrlar) sabab bo'ldi. Markaziy Osiyo ilk uyg'onish davri Somoniylar (875-999), Qoraxoniylar (927-1211), G'aznaviylar (977-1050) va Xorazmshohlar (1097-1231) kabi qudratli davlat tuzilmalari, Muhammad Xorazmiy (783-850), Ahmad Farg'oniy (797-865), Imom Buxoriy (810-870), Abu Iso Termiziy (824-892), Abu Mansur Moturidiy (870-944), Abu Nasr Forobiy (873-950), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Ibn Sino (980-1037), Yusuf Xos Hojib (1018-1088), Mahmud Koshg'ariy (1030-1127), Ahmad Yuhannakiy (XII asr), Xoja Ahmad Yassaviy

(vafoti — 1166), Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni (1103-1179), Burhoniddin Marg'inoniy (1121-1197) kabi ko'plab jahonga mashhur allomalari bilan ajralib turgan bo'lsa, siyosiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish hamda ilm-fan va madaniyat taraqqiyotini qo'llab-quvvatlash natijasi

O'tmishdagi buyuk yurtdoshlarimizning xalqimiz va bashariyat oldidagi xizmati mustaqillik yillarida munosib qadrlanib, hurmat va e'tibor topmoqda. Vatani va madaniyatiga, ilmiy-ma'rifiy va ma'naviy merosga hurmat bilan yondashish, uni o'rganish, boyitish, ushbu avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash har bir davlat va jamiyat taraqqiyoti hamda barqarorligining muhim shartlaridan hisoblanadi.



va madaniyat taraqqiyotiga katta turki berdi. O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi undan keyingi davrlarda ham o'z taraqqiyotida davom etib, markazlashgan o'zbek davlatlari — Shayboniylar va Ashtarxoniylar (XVI-XVIII asrlar) hamda Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari davrida (XVIII-XIX asrlar) ham

O'tmishdagi buyuk yurtdoshlarimizning xalqimiz va bashariyat oldidagi xizmati mustaqillik yillarida munosib qadrlanib, hurmat va e'tibor topmoqda. Vatani va madaniyatiga, ilmiy-ma'rifiy va ma'naviy merosga hurmat bilan yondashish, uni o'rganish, boyitish, yosh

Prezidentimizning 2017-yil 23-iyundagi qaroriga muvofiq, mamlakatimiz asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi, islom madaniyati markazlaridan biri bo'lib kelganini aks ettiradigan O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi.

U xalqimizning buyuk o'tmishini, ilm-ma'rifat rivojiga qo'shgan katta hissasini namoyon qilishga qaratilgan yaxlit majmua bo'lib, yuqorida zikr etilgan diniy-ma'rifiy sohada kechayotgan islohotlarni amaliy tarzda ifodalaydigan ilm va ma'rifat markaziga aylandi.

"Hamma o'z tarixini ulug'laydi. Lekin bizning yurtimizdagi buyuk o'tmish, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkazishimiz kerak. Bu markazga kelgan odam ulkan merosimiz haqida to'la tasavvurga ega bo'lishi, katta ma'naviyat olib ketishi zarur", degan edi Shavkat Mirziyoyev bu yerga tashriflaridan birida.

Bu borada yana bir e'tirof BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish tomonidan shunday bildirilgan edi: "Afsuski, so'nggi yillarda dunyoda yoshlarning yomonlashishi bilan to'qnash kelmoqdamiz. Bu bizni qattiq tashvishga solmoqda. Ana shunday bir paytda mamlakatimiz rahbari boshchiligidagi katta ilmiy-ma'rifiy muassasani barpo etilishi, islomning asl mazmun-mohiyatini ifodalashga harakat qilinishi juda ulug' ishidir".

Ayni paytda markaz zimmasiga ushbu ulkan vazifalarni ado etish uchun mamlakatimiz va xorijdagi barcha ilmiy kuch va imkoniyatlarini safarbar etish zarur bo'lgan. Akademik tadqiqotlardan olingan ilmiy xulosalar markazda amaliy yoki nazariy shaklda o'z ifodasini topmoqchi lozim. Faqat shundaygina ham ilmiy, ham jozibador maskanga, ayni damda sohaga oid mulqotlarga mo'ljallangan ilm o'chog'iga aylandi. Bu boradagi tadqiqot ishlarini ilmiy asosda tizimli yo'lga qo'yish uchun joriy yil iyul oyida mamlakatimizning

500 ga yaqin olimi ishtirokida "Buyuk ajdodlar merosi — Uchinchi Renessans poydevori" forumi tashkil etildi. Forum ishtirokchilari O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasining markazining maqsad va vazifalari, hozirga qadar amalga oshirgan faoliyati, yangi loyihalarni batafsil muhokama qildi. Bildirilgan taklif va tavsiyalar umumlashtirilib, yangi "yo'l xaritasi" loyihasi shakllantirildi. Navbatdagi muhim vazifa sifatida esa yangi ish rejani kelgusi xalqaro forumda xorijlik olimlar va ilmiy-tadqiqot institutlariga taqdim etib, ular bildirgan takliflar asosida yanada boyitish belgilandi. Shu tariqa yangi O'zbekistonga munosib o'ziga xos nufuzli yangi ilmiy loyiha paydo bo'lmoqda.

Zamon bilan hamnafas



Botir USMONOV,
texnika fanlari doktori,
professor

Raqamli texnologiyalar endilikda shunchaki trend emas, balki rivojlanishning asosiy vositasi sifatida ahamiyat kasb etib borayotir. O'zbekistonda ta'lim, sog'liqni saqlash hamda davlat xizmatlari bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda. Davlat boshqaruvchi sohada elektron hukumat loyihalarining taqvi qilinishi byurokratik jarayonlarni soddalashtirish, shaffoflikni oshirish va bunda fuqarolar ishtirokini faollashtirish imkonini berayotir.

XXI asrning shiddat bilan o'zgarayotgan manzarasida raqamli texnologiyalarning hayotga keng miqdorda joriy qilinishi hamda sun'iy intellektning keskin rivojlanishi dunyoning global paradigmasini yangitdan shakllantirmoqda. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bu texnologik inqilob ulkan imkoniyatlarni yaratadi. Bugungi kunda global muhokama nuqtalari innovatsiyalarni boshqarish va oliy ta'limda raqamlashtirishni joriy etishni o'z ichiga oladi. Ushbu omillarni uyg'unlashtirib, muvozanatlash orqali raqamlashtirish oliy ta'limning innovatsion salohiyatini oshirish va o'quv dasturlarida ilg'or ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni ko'paytirishning kaliti bo'lishi mumkin. Bu esa pirovardida talabalar tomonidan bilimni o'zlashtirish darajasini oshiradi. Sohada olib borilayotgan tadqiqotlar natijasi



shuni ko'rsatadi, raqamlashtirish oliy ta'lim uchun juda muhim. Chunki u "Sanoat 4.0" tizimi bilan yuqori darajadagi ishonchlikni namoyish etadi. Raqamli texnologiyalar integratsiyasi, internet va raqamli davlat xizmatlaridan foydalanish mamlakatimizda oliy ta'limga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli iqtisodiyotda talab qilinadigan inson kapitali muammolari oliy ta'limda innovatsiyalar va raqamlashtirish bo'yicha olib borilayotgan izlanishlar markazida turadi. Butun dunyo bo'ylab so'nggi o'n yillikda raqamlashtirish ta'limning barcha tuzilmasini o'zgartirdi. Amaliyotchilar, olimlar va siyosatchilar ta'lim taraqqiyotiga jiddiy e'tibor bera boshladi.

OLIIY TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR

Zamon shiddat bilan o'zgarayapti. Har bir mamlakatga axborot texnologiyalari, xususan, sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalarning kirib borishi barcha sohalaridagi munosabatlarga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlarning yarmidan ortig'i asrimiz boshidan buyon raqamli texnologiya bilan qamrab olindi. Bu aholi turmush tarzini, hayot sharoitining sezilarli darajada o'zgarishiga olib keldi.

To'rtinchi sanoat inqilobi natijasida global hayot va mehnat standartlari yangilanishi natijasida ko'plab an'anaviy ta'lim modellari va o'qitish usullari eskirib bormoqda. Raqamli ta'lim ijtimoiy va iqtisodiy hayotimizning barcha jabhalariga kirib borib, avvalo, talabalarni masofadan o'qitishga yordam beradi.

Sanoat inqilobi ta'sirida boshqa sohalar ham o'z imkoniyatlarini kengaytirish uchun ta'lim tuzilmalariga tayanadi. Bu esa ta'lim sohasining rivojlanishi va sanoat inqilobining muhim jihati hisoblanadi. Kommunikativ vaziyatlar, aniq ma'lumotlar va uni qo'llash haqida gap ketar ekan, ta'lim tizimi kattaroq maqsadga erishish imkoniyatiga egaligini e'tirof etish kerak.

"Raqamlashtirish" atamasi jamiyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish bilan bog'liq tendensiyalar asosida qo'llab-quvvatlanadigan biznes strategiyasini anglatadi. "Aqli" shahar va obyektlarning o'sishi dunyodagi asosiy mavzulardan biri sifatida raqamlashtirishning kuchayishi bilan bog'liq bo'lib, zamonaviy mamlakatlar rivojlanishining muhim omillaridan hisoblanadi. To'rtinchi sanoat inqilobi raqamli shakldagi axborotlarni qabul qilishni osonlashtirish uchun yuqori tezlikdagi internetdan foydalanishga urg'u beradi. Raqamli texnologiyalar orqali iqtisodiyotni kengaytirish tartib-qoidalarini tezroq harakatlanar ekan, oliy ta'lim tizimi jahon ta'lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshligini saqlab qolish maqsadida xalqaro, marketing, moliyaviy va iqtisodiy faoliyatni o'zgartirmoqda. Ta'limda raqamlashtirish texnologiyalarni qo'llashni o'rganish uchun yangi imkoniyatlar ochib,



resurslardan foydalanish samaradorligini oshirmoqda.

Ta'lim sohasidagi hamkorlik raqamli texnologiyalarni o'qitishning ilg'or hamda noan'anaviy yondashuvlaridan tashqari qamramli raqamlashtirish ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik strategiyasiga, shuningdek, davlatning ta'lim siyosatiga kiritilishi ayni muddao. Hozir dunyoda talabalar boshlang'ich maktabdan tortib, oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda smartfon, planshet va noutbuk kabi raqamli qurilmalardan foydalanishga odatlangan. Ko'pchilik gadjetlardan mulqot va o'yin-kulgi uchun foydalanadi. Biroq o'zgaruvchan dunyo yoshlardan ushbu texnologiyalar orqali o'rganish va ta'lim olishni talab qilmoqda.

Kelgusida ta'lim sohada sodda, qulay va samarali raqamli texnologiyalardan keng foydalaniladi. Ta'limni boshqarish va o'qitish amaliyoti kuchli takomillashtirishni,

avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash har bir davlat va jamiyat taraqqiyoti hamda barqarorligining muhim shartlaridan hisoblanadi.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan xalqaro voqeelik, jumladan, islom dinini siyosiy lashtirish, undan radikal-ekstremist oqimlar mafkuralarini asoslashga urinishlar kengayishi, xalqaro diniy ekstremizm va terrorizm dunyodagi tinchlik va barqarorlikka ochiqdan ochiq tahdid solayotgan, internet va ma'lumotni tekzor uzatuvchi boshqa tizimlar axborot globalashuvining salbiy oqibatlarini keskinlashtirayotgan sharoitda yashayapmiz. Bunda jamiyat a'zolari, ayniqsa, yoshlariga islom dinining asl tinchlikparvar, insonparvarlik mohiyatini singdirish va diniy o'zlikni anglash masalasi davrimizning dolzarb vazifalaridan.

avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash har bir davlat va jamiyat taraqqiyoti hamda barqarorligining muhim shartlaridan hisoblanadi.

Shiddat bilan o'zgarib borayotgan xalqaro voqeelik, jumladan, islom dinini siyosiy lashtirish, undan radikal-ekstremist oqimlar mafkuralarini asoslashga urinishlar kengayishi, xalqaro diniy ekstremizm va terrorizm dunyodagi tinchlik va barqarorlikka ochiqdan ochiq tahdid solayotgan, internet va ma'lumotni tekzor uzatuvchi boshqa tizimlar axborot globalashuvining salbiy oqibatlarini keskinlashtirayotgan sharoitda yashayapmiz. Bunda jamiyat a'zolari, ayniqsa, yoshlariga islom dinining asl tinchlikparvar, insonparvarlik mohiyatini singdirish va diniy o'zlikni anglash masalasi davrimizning dolzarb vazifalaridan.

Ta'lim sohasidagi hamkorlik raqamli texnologiyalarni o'qitishning ilg'or hamda noan'anaviy yondashuvlaridan tashqari qamramli raqamlashtirish ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik strategiyasiga, shuningdek, davlatning ta'lim siyosatiga kiritilishi ayni muddao. Hozir dunyoda talabalar boshlang'ich maktabdan tortib, oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda smartfon, planshet va noutbuk kabi raqamli qurilmalardan foydalanishga odatlangan. Ko'pchilik gadjetlardan mulqot va o'yin-kulgi uchun foydalanadi. Biroq o'zgaruvchan dunyo yoshlardan ushbu texnologiyalar orqali o'rganish va ta'lim olishni talab qilmoqda.

Kelgusida ta'lim sohada sodda, qulay va samarali raqamli texnologiyalardan keng foydalaniladi. Ta'limni boshqarish va o'qitish amaliyoti kuchli takomillashtirishni,

tuzilishiga innovatsiyalarni ham kiritishi lozim. Tizim ushbu tuzilmani professional innovatsion rivojlanish uchun foydali qo'llanma sifatida qabul qilgan taqdiridagina raqamlashtirish sohasidagi kompetensiyalar ustida ishlashga tayyor bo'ladi. Bu ta'lim muhitida va undan tashqari innovatsiyalar va raqamlashtirish bo'yicha ta'lim sohasidagi hamkorlikni osonlashtirish orqali ta'lim boshqaruvini o'zgartirish imkoniyatiga ega.

Maqsadimiz 2030-yilgacha oliy ta'lim muassasalaridagi raqamlashtirish va nomutanosiblikni baholash orqali O'zbekiston oliy ta'lim tizimi xalqaro nufuzini oshirishdan iborat.

Bundan tashqari, oliygohlar texnologiya va dasturlash sohasidagi yutuqlarni hisobga olgan holda izchil, yuqori sifatli onlayn ta'limni qo'llab-quvvatlovchi yaxlit tizimni ishlab chiqishi kerak. Chunki bu integratsiya oliy ta'limning maqsad va yutuqlarini kengaytirish imkonini berishi mumkin. Oliy ta'limni tashkil etish, unda samarali foydalanishni qo'llab-quvvatlovchi raqamli texnologiyalarni integratsiyalashuvi orqali imkoniyatlar majmuasini rivojlantirish ta'lim yutuqlari va umrbod ta'lim olishda muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchilar va menejerlar raqamli davlat xizmatlarini qanchalik ko'p tag'ib qilsa, oliy ta'limda raqamli kompetensiya shunchalik rivojlanadi. Boshqacha qilib aytganda, biz raqamli davlat xizmatlari oliy ta'limga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ta'kidladik. Oliy ta'limni mehnat bozori talabari asosida tiklash uchun oliy ta'lim va kadrlar tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish bo'yicha xabardorlikni oshirish va g'oyalarni yangilash zarur.

Oliy ta'limni raqamlashtirish bo'yicha xulosalarimizdan kelib chiqib, biz internetdan foydalanish, raqamli texnologiyalar integratsiyasi va davlat raqamli xizmatlarini hisobga olgan holda universitet integratsiyasi darajasini o'lcash usulini ishlab chiqish va uni ta'lim hamda o'qitish tizimlariga tatbiq qilish kerakligini taklif etamiz. Ta'kidlash kerakki, ta'limda raqamlashtirish turli afzalliklarga ega. Ulardan biri "aqlli" ta'lim va o'qitish texnologiyasidir. Har ikkisi ham zamonaviy universitet tizimining jahon ta'lim bozoriga integratsiyalashuvida muhim rol o'ynaydi. Oliyog'ohlar jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish uchun turli xil xavf omillari ta'sirida dunyoning istalgan nuqtasida talabalar uchun uzluksiz ta'lim jarayonini ta'minlaydigan o'zlarining noyob texnologiyalarini yaratishga intilishi kerak.



FARZAND TARBIYASIDA IJTIMOY MUAMMOLAR BOR AMMO ULARNING YECHIMI HAM YONIMIZDA

Mulohaza

Ma'rifatparvar jadid bobomiz Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir", degan edi. Bir asr ilgari aytilgan oltinga teng bu hikmat yana ko'p yillar avlodlarga saboq bo'lishi shubhasiz. Oila bo'stonida ko'z ochib, maktab quchoq'ida ta'lim-tarbiya olib dunyoni tanigan jajji bolaning shaxs sifatida shakllanishida, hayotda, jamiyatda o'z o'rnini topishida bu ikki muqaddas dargohning hamkorligi benihoya muhimdir. Zero, tarbiya orqali saodatga yoki halokatga eltuvchi yo'lning muqaddimasi oiladan boshlansa, davomi maktabning qutlug' dargohidan o'tadi.



psixologiyasiga u yoki bu ma'noda ta'sirini o'tkazmay qolmayapti. Farzandlari tarbiyasi va kelajagiga befarq bo'lmagan ota-onalarning o'g'il-qizlari davriming bunday taraqqiyoti bilan teng odim tashlamog'da. Bunday bolalarning zamonaviy ta'lim olishi uchun barcha sharoitlar yaratib berildi.

Oilalar turmush tarzi bir-biriga mutlaqo o'xshamaydi, istaymizmi-yo'qmi, muhitdagi tafovutlar bolalarning maktabda ham tabaqalanib qolishiga olib kelyapti. Ularning ruhiyatini o'rgansangiz, tarbiyali va a'lochi o'quvchilar ota-onasi ma'naviyati, dunyoqarashi keng oilalarda ulg'ayayotgan bo'ladi. Ikkinchi toifa bolalar esa ota-onasi ajrashib ketgan yoki turmush tarzi nosog'lom, jamiyat hayotiga befarq ota-onalarning farzandlari ekanini ilg'aysiz.

Yana bir toifa o'quvchilar borki, ular o'zlarini boshqalardan baland tutadi, kibr-u havoga berilgan. Boisi, ular tarbiyalanayotgan oilada ota-ona hayot mazmunini pul topish, boylik orttirishdan iborat deb biladi.

Shu o'rinda ta'lim poydevori oilada qo'yilar, tarbiya uning asosini tashkil etarkan, ana shu asoslarni qaysi jihatlarda takomillashtirish kerak, degan savol tug'iladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning XIV bobi to'ralig'icha oila, bolalar va yoshlarga bag'ishlanadi. Uning 77-moddasida "Ota-onalar va ularning o'rini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburlar", deb yozib qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Oila

kodeksining 65-moddasida esa bola o'z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, manfaatlari ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga egaligi belgilab berilgan. Xo'sh, shu tamoyillar to'la ishlayaptimi? Afsuski, bu savolga ijobiy javob bera olmaymiz.

Bugun hoyu-havasga berilgan aksariyat oilalarda bola tarbiyasiga befarqlik qururi mavjud. Ba'zan bolasi nojo'ya xatti-harakat qilsa, huquqbuzarliklar sodir etsa, maktabni

noqonuniy, ya'ni shar'iy nikohlarni olib ko'raylik. Vaholanki, ular ham kamaymayapti. Bu holatlar bolalar ruhiyatiga, risoladagidek tarbiyasiga putur yetkazayotganini ko'ribilib turibmiz. Masalan, yaqinda Qo'shstepta tumanida yashovchi bir shaxs nikohlanayotgan ayolning bir nafar o'g'li tarbiyasini bo'yniga olib, oilaviy hayotining yigirmanchi kunioyq hali to'rt yoshga to'lmagan go'dakni dalaga olib borib, undan qutulish uchun bo'g'ib o'ldirdi, alhazar! Qotil-ku, 15 yillik qamoq

manfaatlari kafolatlab qo'yilishi shart. Ana shundagina bolalarning konstitutsion huquqi himoya qilingan bo'ladi. Aks holda, ajrimlar, qo'sh xotinliklar orqasidan insoniy qadr-qimmatini joyiga qo'yilmayotgan, asosan, otasi, ba'zan onasi tomonidan manfaatlari ta'minlanmayotgan tirik yetim bolalar jamiyatning eng og'riqli dardi bo'lib, tarbiyasi, ta'limi sizu biz kutgan natijani bermay qolaveradi. Yana farzandi bo'la turib, ajrimda tashabbuskor bo'layotgan tomonga davlat boji rivojlangan davlatlardagidek katta miqdorda belgilansagina, bu og'riq asta-sekin bartaraf etilsa, ajrimlar keskin kamaysa, ajabmas.

Yana bir qusur borki, bu haqda to'xtalib o'tmaslikning iloji yo'q. U ham bo'lsa, voyaga yetmagan bolalarini tashlab, rizq axtarib xorijga chiqib ketayotganlar ortidan bolalar tarbiyasi va albatta, ta'limida boy berilayotgan ma'naviy yo'qotishlar. Asosan, otalari, ba'zan analari ham (bular ko'proq eri bilan ajrashgan ayollar), hatto har ikkisi tirikchilik vajidan xorijda yurib, bolalari ta'lim-tarbiyasida boy berayotgan ma'naviy boyliklarini, qonun bo'yniga qo'ygan burchlarini unutib qo'ymoqda.

Axir bolalik, o'smirlilik, balog'at ostonasida turgan farzand uchun ota-ona mehri, e'tibori har kun, har soat kerak emasmi? Ularni maktabga kuzatish, kutib olish, darslarini, bo'sh vaqtini qanday o'tkazayotganini nazorat qilish ko'p hollarda turmush ikir-chikirlaridan charchagan buvi-buvialarga qolib ketyapti. Maktabga xohlasa kelib, xohlasa kelmaydiganlar, darslarni past o'zlashtiradiganlar, tarbiyasi og'ir bolalar, asosan, shunday oilalardan chiqyapti. Hayotiy kuzatishlarimdan bilamanki, huquqbuzarlik ko'chalariga aynan shunday bolalar kirib qoladi.

Bu o'rinda bolalarni ayblash — adolatsizlik. Holatda bosh aybdor qonuniy burchini ado etmagan ota-ona, mavjud qonunlar ishlarini ta'minlay olmayotgan davlat idoralariining mas'ullaridir.

Taklifimiz: voyaga yetmagan farzandi bor, ajrashgan yoki yolg'iz ayolning chetga ishlash uchun chiqib ketishini me'yoriy hujjat asosida tartibga solish zarur. Ayni paytda ular yurtimizda muqim ish o'rni bilan ta'minlanishi shart. O'ylaymizki, mamlakatimizda bunday imkoniyat yetarli.

Milliy an'ana va qadriyatlarimizda insonni mehnat tarbiyalashini bot-bot tilga olamiz. Millatimiz bolalari azaldan mehnatga yoshligidan o'rgatilgan va uning gashiti, sururi, mashaqqati haqida tasavvurga ega bo'lib ulg'aygan. Bugunga kelib bolalarimiz mehnatdan uzoqlashtirilib, tanballik, dangasalik girdobiga duchor qilyapti. To'g'ri, ularning bo'sh vaqti Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan besh tashabbus asosida band etilishiga harakat qilyapti. Ammo bola tarbiyasida taraqqiyotni harakatga

Sifatli ta'limga, uning asosi bo'lgan oiladan boshlanadigan sharqona tarbiyaga birgalashib mustahkam poydevor qo'ymoqlik ota-ona, ustoz va murabbiy, mahalla mutasaddilari, butun jamoatchilik, demakki, har birimizning burchimiz ekanini aslo unutmaylik. Axir o'sib kelayotgan har bir bola bizning, shu aziz Vatanimizning bolasi. Uchinchi Renessansga sizu biz boshchiligimizda ularning intilishlari, mehnatsevarligi, sifatli ta'lim-tarbiyasi bilaniga asos solinadi.

keltiruvchi manba — yaratuvchi mehnatning o'rni beqiyosligini biz, kattalar nazardan qochirmasligimiz kerak.

Davlatimiz rahbari bir qator nutqlarida bu haqda alohida to'xtalib va maktab ta'limi tizimida bu borada amalga oshiriladigan ishlohtlarni, ya'ni bolalar 7-sinfidan boshlab u yoki bu kasbga yo'naltirilishi, 11-sinfni bitirish barobarida kasb egasi bo'lib, maktabdan bo'sh paytida ishlab, 50 foiz oylik maosh bilan ta'minlanishini tilga olgan va mazkur tartib amal qilyapti. Bu qadriyatimiz darajasiga ko'tarilgan haqiqatdir. Mehnatga o'rgangan bolaning tarbiyasi ham, ta'lim darajasi ham ko'ngildagidek bo'lishini hayotning o'zi isbotlab qo'ygan.

Taklifimiz: bolalarni mehnatga ko'niktirib borish milliy qadriyatimiz hisoblanar ekan, dalalalar emas, balki oilasi, maktabda mehnatning sururini jismu jonida his qila olgan bola ota-onaning ham, ustozning ham, mahallaya yurtining ham qadr-qimmatini joyiga qo'ya oladi deb hisoblaymiz.

Tarbiya ta'limning poydevoridir. Agar oilada bola tarbiyasiga mas'ul bo'lgan ota-ona, buva-buvijonlar o'z mas'uliyatini milliy qadriyatimiz asosida, shuningdek, huquqiy anglagan holda ish yuritsa, bolaning odobi, yurish-turishi, o'qishiga befarq bo'lmasa, bo'sh vaqtining har lahzasini komil inson bo'lishiga safarbar eta bilsa, sifatli ta'lim olishiga puxta poydevor qo'ygan bo'lardi. Ustozlar oila ruhiyatidan kelib chiqib, bu tarbiyani yanada mukammallashtirishga hissa qo'shgan holda zamonaviy ta'lim berish yo'lida fidoyilik ko'rsata olsa, o'quvchilarimiz orasidan buyuk allomalar, ularga munosib izdoshlar yetishib chiqishiga ishonamiz.

Sifatli ta'limga, uning asosi bo'lgan oiladan boshlanadigan sharqona tarbiyaga birgalashib mustahkam poydevor qo'ymoqlik ota-ona, ustoz va murabbiy, mahalla mutasaddilari, butun jamoatchilik, demakki, har birimizning burchimiz ekanini aslo unutmaylik. Axir o'sib kelayotgan har bir bola bizning, shu aziz Vatanimizning bolasi. Uchinchi Renessansga sizu biz boshchiligimizda ularning intilishlari, mehnatsevarligi, sifatli ta'lim-tarbiyasi bilaniga asos solinadi.



Xadichaxon KARIMOVA, Farg'ona viloyati "Oqila ayollar" harakati a'zosi

Ming yillik qadriyatlarimizga tayanib, buyuk ajdodlarimizning bolaligiga nazar tashlasak, ularning deyarli barchasi ilk tarbiya va ibratni o'z ota-onasidan olganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, muhaddislar sultoni Imom al-Buxoriy dastlabki tarbiyani otasi Ismoilidan, u kishidan ayrilgach esa onasidan olganini o'qiganmiz. "Buyuk yurt allomalari" kitobida keltirilishicha, Imom at-Termiziy, Muhammad Xorazmiy, Imom al-Moturiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy singari buyuk bobolarimiz, ne-ne momolarimiz ham ilk saboqni o'z ota-onasidan o'rgangan. Ya'ni buyuk allomalarimizning ko'pi ilk tarbiyani oilasida olgan. Shundan keyingina ota-onalarning roziligi va intilishi bilan ustozlari etagidan tutilgan.

Birinchisi, Ikkinchi Uyg'onish davrlarini boshlab bergan ajdodlarimiz ilm-ma'rifat istab qancha-qancha yurtlarni kezmadi, qiyinchiliklarga duchor bo'lmadi deysiz. Lekin intilish, izlanishda davom etaverdi. O'zlaridan asrlar osha qimmat o'rtib borayotgan islom, astronomiya, matematika, tabobat, adabiyot, ma'naviyatdan ta'limot beruvchi bebaho meroslar qoldirdi. Aytmoqchimizki, bolaning shaxs sifatida shakllanishida ota-onaning o'rni, bilimi, ma'naviyati, farzandi kamoloti yo'lidagi intilishi, oilaviy muhitning ahamiyati beqiyos.

Bugun yurtimizda Uchinchi Uyg'onish davrini boshlash yo'lida tarbiya va ta'lim uyg'unlikda olib borilayotgan ishlohtlar bo'y ko'rsata boshladi. Prezident maktablari, ixtisoslashtirilgan muassasalar, ijod maktablari buguning chinakam bilimdonlarini kashf etmoqda. Ammo oilalarimiz, oddiy maktablarimiz hayotiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ijobiy holatlar bilan birga noxushlariga ham duch kelinayotganini ko'ramiz. Bu esa sifatli va samarali ta'limga salbiy ta'sir o'tkaz-yapti. Vaholanki, bu borada O'zbekistonda qonuniy, ma'naviy-ma'rifiy asoslar yaratib qo'yilgan.

Xo'sh, tarbiya va ta'lim sifatiga salbiy ta'sir etayotgan qusurlar nimalardan iborat? Global o'zgarishlar davri, axborot texnologiyalarining rivojlanishi bolalar



aybdor qilishdan uyalmaydigan ota-onalar ham yo'q emas. Jamiyatimizning eng og'riqli nuqtasi — oilaviy ajrimlar tobora ortib borayotgani ham ijtimoiy muammoga aylandi. Oqibatda aksariyat bolalar, asosan, ota tarbiyasidan mosuvo bo'lib o'syapti. Nari borganda, ko'ngli o'ksik bunday bolalar arzimagan alimentga qaram bo'lib qolmoqda. Bu nafaqa ham bola 18 yoshga yetganda, xarajati ko'paygan paytda to'xtatib qo'yiladi.

Oilalarni mustahkamlashga mas'ul bo'lgan mahallalardagi tarbiyachilik komissiyalari ham, aliment yoki ajrim uchun da'vo arizasini ko'rib chiqayotgan fuqarolik sudlari ham aliment ajratish, ajrimga muddat belgilash vaqti yetganda, ajratib qo'yish singari rasmiyatchilikdan nariga o'ta olmayapti. Voyaga yetmagan farzandlar shu tariqa ham moddiy, ham ma'naviy zarbalarga girdobida qolib ketmoqda. Bu holat, albatta, bolaning ruhiyatiga, tarbiyasiga, darslarni o'zlashtirishiga, pirovardida jamiyatda o'z o'rini topishiga salbiy ta'sir ko'rsatmay qolmayapti.

"Yolg'iz ona", "otalikni belgilash" singari salbiy ko'rsatkichlarga asos bo'ladigan

jazosiga hukm qilindi. Ammo bolaning gunohi nima edi?!

Taklifimiz: Konstitutsiyamizdagi "Ota-onalar va ularning o'rini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburlar" va Oila kodeksidagi "Bola o'z ota-onasi tomonidan tarbiyalanishi, o'z manfaatlari ta'minlanishi, har taraflama kamol topishi, insoniy qadr-qimmatlari hurmat qilinishi huquqiga ega" degan tamoyillar kitoblar qatida qolib ketmasligi, faol ishlashga erishmoq lozim. Shundagina Konstitutsiyamizning 76-moddasidagi "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir" degan qoidaning to'laqonli amal qilishi ta'minlanadi.

Oila bilan bog'liq qonunlarni takomillashtirib, bolaning manfaatlarini ko'zlagan holda oila qurishda "nikoh shartnomasi tuzilishi shart" degan tamoyilni kiritish kerakki, bu bilan oilada farzand tug'ilgandan keyin uning boshpana bilan ta'minlanish huquqi, qolgan barcha